



# BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTI / 2023



# Mundarija

|                               |    |
|-------------------------------|----|
| Asosiy ko'rsatkichlar         | 04 |
| Boshqaruv raisining murojaati | 08 |

## 1 Kompaniya haqida

|                              |    |
|------------------------------|----|
| Kompaniya profili            | 12 |
| Faoliyat geografiyasi        | 15 |
| 2023-yildagi asosiy voqealar | 16 |

## 2 Korporativ boshqaruv va barqaror rivojlanish masalalarini boshqarish

|  |    |
|--|----|
| Korporativ boshqaruv tuzilmasi va organlari          | 22 |
| Dividend siyosati                                    | 33 |
| Manfaatlar to'qnashuvi                               | 34 |
| Ichki va tashqi audit xizmati                        | 35 |
| Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurash | 37 |
| Iqtisodiy resurslarni boshqarish                     | 42 |

## 3 Ekologik mas'uliyat

|   |    |
|---|----|
| Boshqaruvga yondashuv   | 46 |
| Atrof-muhitni muhofaza qilish (atmosfera chiqindilar chiqarilishini boshqarish, suv iste'moli, chiqindilar) | 47 |
| Energiya iste'moli va energiya tejamkorligi   | 52 |

## 4 Mehnatni muhofaza qilish va ish joyida xavfsizlikni ta'minlash

|  |    |
|--|----|
| Boshqaruvga yondashuv  | 58 |
| Ish joyida xavfsizlik  | 60 |
| Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi masalalari yuzasidan o'qitish | 61 |

## 5 Ijtimoiy mas'uliyat va jamiyat oldidagi majburiyatlar

|   |    |
|---|----|
| Boshqaruvga yondashuv   | 64 |
| Bandlik   | 66 |
| Personalni rivojlantirish va o'qitish   | 70 |
| Xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va hayoti sifatini yaxshilash bo'yicha loyihalar                           | 72 |
| Axborot xavfsizligi   | 78 |
| Kompaniya faoliyat yuritayotgan hududlarda hayot sifatini qo'llab-quvvatlash va yaxshilashga qaratilgan loyihalar | 81 |

## 6 Ilovalar


|   |    |
|---|----|
| 1-ilova. Glossariy va qisqartmalar ro'yxati | 83 |
| 2-ilova. Hisobot haqida                     | 84 |
| 3-ilova. Bog'lanish uchun ma'lumotlar       | 85 |




# Asosiy ko'rsatkichlar

## Moliyaviy va operatsion ko'rsatkichlar


DAROMAD,  
MLRD SO‘M




SOF FOYDA,  
MLRD SO‘M



TARMOQLARNING UZUNLIGI,  
MING KM




ABONENTLAR SONI




## Ijtimoiy ko'rsatkichlar


XODIMLAR SONI,  
JAMI KISHI




KADRLAR QO‘NIMSIZLIGI,  
%




O‘QUV SOATLARINING UMUMIY  
SONI



XODIMLARNI O‘QITISHGA  
SARFLANGAN BIR YILGI  
XARAJATLAR, MLN SO‘M



XOMILADORLIK VA TUG‘ISH TA‘TILINI HAMDA BOLA PARVARISHLASH  
TA‘TILINI RASMIYLASHTIRGAN XODIMLAR SONI







# Asosiy ko'rsatkichlar

## Boshqaruv ko'rsatkichlari


YARATILGAN BEVOSITA IQTISODIY QIYMAT, MLRD SO‘M




TAQSIMLANGAN IQTISODIY QIYMAT, MLRD SO‘M




TAQSIMLANMAGAN IQTISODIY QIYMAT, MLRD SO‘M




MAHALLIY YETKAZIB BERUVCHILARDAN XARIDLAR SUMMASI, MLN SO‘M



MIQDORI BO‘YICHA %




SUMMASI BO‘YICHA %




## Ekologik ko'rsatkichlar


UMUMIY SUV ISTE‘MOLI, M<sup>3</sup>



QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARIDAN ENERGIYA ISTE‘MOLI, GDJ



UTILIZATSIYA QILINADIGAN XAVFLI CHIQUINDILARNING UMUMIY HAJMI, M<sup>3</sup>





# Boshqaruv raisining murojaati



**Xasanov Nazirjon Nabijanovich**

"O'ZBEKTELEKOM" AK  
BOSHQARUV RAISI

## Hurmatli aksiyadorlar, hamkorlar va hamkasblar!

E'tiboringizga xalqaro GRI standartlari tavsiyalari asosida tayyorlangan "O'zbektelekom" AKning 2023-yil uchun Barqaror rivojlanish hisoboti havola qilinmoqda. Ushbu hujjatda biz ESG tamoyillari va barqaror rivojlanish tarafdori ekanligimizni namoyish qilib, Kompaniyaning ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv sohalaridagi asosiy natijalari va yutuqlarini jamladik.

So'nggi yillarda Kompaniya tomonidan O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, aholining turmushi sifatini yaxshilash va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan "Elektron hukumat" tizimini yaratishda ishtirok etish muhim tashabbus bo'ldi. Ushbu jarayon davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etishni tartibga soluvchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrda PF-5598-son Farmoniga asoslangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2023-YILDA

**66,9** ming kilometrdan

ORTIQ YANGI OPTIK TOLALI ALOQA LINIYALARI TORTILDI

YUQORI TEZLIKDAGI INTERNET UCHUN PORTLAR SONI

**4,8** milliondan oshdi

Ushbu strategiya doirasida mavjud telekommunikatsiya infratuzilmasi tizimli tahlil qilindi, tarmoqlarni modernizatsiya qilish yo'nalishlari belgilandi, uskunalarni bosqichma-bosqich yangilash rejasi ishga tushirildi. Kompaniya mis aloqa liniyalaridan optik tolali aloqa liniyalariga o'tib, eng chekka hududlarni ham tezkor va barqaror Internet bilan ta'minlamoqda. 2023-yilda 66,9 ming kilometrdan ortiq yangi optik tolali aloqa liniyalari tortildi.

Mobil aloqani rivojlantirish ham ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Yil davomida Kompaniya UMTS/LTE tarmog'i qamrovini kengaytirishni davom ettirdi hamda Toshkent va Samarqand shaharlarini 5G tarmog'i bilan to'liq ta'minladi. Modernizatsiya doirasida 6 mingdan ortiq yangi baza stansiyalari ishga tushirildi, ulardan 1000 tasi birgina Samarqand shahrida.

VoLTE texnologiyasi joriy etilishi 2023-yilning muhim bosqichi bo'ldi, ushbu texnologiya ovoqli aloqa sifatini yaxshilaydi, uning yanada aniqroq va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa foydalanuvchilarga ilg'or telekommunikatsiya yechimlarini taqdim etishning yana bir bosqichidir.

Kompaniya mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini ham oshirdi. Yuqori tezlikdagi Internet uchun portlar soni 4,8 milliondan oshdi, bu esa 100 foiz ijtimoiy soha obyektlarini va mamlakatning 93 foiz aholi punktlarini ulash imkonini berdi.

"O'zbektelekom" AK aloqa sohasida o'zining yetakchi pozitsiyalarini saqlab kelmoqda va ishonchli hamkor sifatida obro'qa ega. 2023-yilda Kompaniya yana bir bor "Yil brendi" tanlovining "Kommunikatsiyalar" nominatsiyasida g'olib bo'ldi.

2024-yilda Kompaniya barqaror rivojlanish tashabbuslarini amalga oshirish, raqamli transformatsiya va telekommunikatsiya xizmatlari sifatini oshirishni davom ettiradi. Yangi texnologiyalarni joriy etish, 5G tarmog'ini kengaytirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish millionlab foydalanuvchilarni barqaror aloqa bilan ta'minlash va ularga yuqori tezlikdagi Internetdan foydalanish imkonini beradi.

Ishonchimiz komilki, barqaror rivojlanish nafaqat strategik tanlov, balki Kompaniya va butun jamiyat uchun barqaror kelajak garovidir. Men aksiyadorlar, hamkorlar va xodimlarga O'zbekistonning raqamli kelajagi sari amalga oshirilayotgan ishlarda qo'llab-quvvatlaganliklari, ishonchlarini va hamkorliklari uchun minnatdorchilik bildiraman.

## 1.

# KOMPANIYA HAQIDA


- 12 — Kompaniya profili
- 15 — Faoliyat geografiyasi
- 16 — 2023-yildagi asosiy voqealar



# Kompaniya profili

**“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi O‘zbekistondagi eng yirik milliy telekommunikatsiya operatori bo‘lib, butun mamlakat bo‘ylab keng ko‘lamli telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etadi. Kompaniya 1992-yilda tashkil etilgan bo‘lib, bosh ofisi Toshkent shahrida joylashgan. Kompaniya UZTELECOM™ savdo belgisi ostida zamonaviy texnologiyalar asosida qurilgan telekommunikatsiya tarmog‘idan foydalanadi.**

## KOMPANIYA KENG KO‘LAMLI XIZMATLARNI TAKLIF ETADI, SHU JUMLADAN:



Kompaniya jismoniy va korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatadi va 100 dan ortiq mamlakatlardagi o‘z abonentlarini aloqa bilan ta‘minlab, xalqaro rouming sohasida keng hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan.

Kompaniya xalqaro telekommunikatsiya tashkilotlari bilan muntazam ravishda hamkorlik qiladi, xalqaro telekommunikatsiya loyihalarida ishtirok etadi hamda xorijiy operatorlar va telekommunikatsiya uskunalari ishlab chiqaruvchilari bilan ikki tomonlama hamkorlikni amalga oshiradi. “O‘zbektelekom” AK Xalqaro elektraloqa ittifoqi (XEI), Aloqa sohasidagi mintaqaviy hamdo‘stlik (ASMH) va “Intelsat” sun‘iy yo‘ldosh aloqasi tashkiloti bilan faol hamkorlik qiladi.

Kompaniya tarkibiga 20 ta filial kiradi, ulardan 14 tasi hududiy va 6 tasi ixtisoslashgan filial. 2023-yilda Kompaniya xodimlari soni 2021-yilga nisbatan 151 nafarga ko‘payib, 17 458 nafarni tashkil etdi. Xodimlar orasida ayollar 25.4% (4 434 kishi)ni, 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar esa 26.8% (4 687 kishi)ni tashkil etdi.

Kompaniya mamlakatimizda telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etuvchi 8 ta qo‘shma korxonada ulushga ega.

**“O‘zbektelekom” AK telekommunikatsiya xizmatlari bozorining tan olingan yetakchisi bo‘lib, iste‘molchilarning keng doirasiga, jumladan, davlat organlari, idoralar, tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatadi.**

20  
ta filial

17 458  
xodimlari

25,4%  
ayollar

## Bizning vazifamiz

Kompaniya O‘zbekiston aholisi uchun hamyonbop va cheksiz aloqa uchun imkoniyatlarni yaratadi va kengaytiradi. “O‘zbektelekom” AK texnologiyalari O‘zbekistonning istalgan nuqtasida odamlarga yangi bilim va yangi imkoniyatlar beradi.

## Bizning qadriyatlarimiz

“O‘zbektelekom” AK bir qator asosiy qadriyatlar tarafdori ekanligini bildiradi, Kompaniya vakillarining fikricha, ular faoliyatining asosini tashkil qiladi.



### MIJOLAR UCHUN QULAYLIK

Mijozlar uchun qulaylik — bizning ustuvor vazifamizdir. “O‘zbektelekom” AK o‘zini yuqori sifatli telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi provayder sifatida namoyon etib, mijozlar uchun maksimal darajada qulaylik yaratishga intiladi. Kompaniyaning ta’kidlashicha, ishonchli aloqani ta’minlash orqali u abonentlarga shaxsiy va professional masalalarga ko‘proq vaqt ajratish imkonini beradi.



### AHOLIGA G‘AMXO‘RLIK QILISH

Aholiga g‘amxo‘rlik qilish — ustuvor vazifa. “O‘zbektelekom” AK mamlakat aholisining manfaatlarini foydadan ustun qo‘yadigan, o‘zining milliy operator sifatidagi rolini alohida ta’kidlaydi. Har bir fuqaroni aloqa bilan ta’minlash asosiy vazifa sifatida ko‘riladi.



### TEKNOLOGIK YETAKCHILIK

Texnologik yetakchilik — belgilangan maqsad sifatida. “O‘zbektelekom” AK texnologiyalarni rivojlantirish va tarmog‘ini yaxshilashga intiladi. Kompaniya texnologik jihatdan boshqa mamlakatlardan oldinda bo‘lish uchun o‘z xizmatlarining sifati, ishonchliligi va xavfsizligini oshirish maqsadida innovatsiyalarni faol tatbiq etadi.



### ISH STANDARTI SIFATIDA — TUN-U KUN MAS‘ULIYAT

Ish standarti sifatida — tun-u kun mas‘uliyat: “O‘zbektelekom” AK zamonaviy dunyoda aloqaning muhim ahamiyatini tushunishini bildiradi. Kompaniya o‘z xizmatlari uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olishini, ularning uzluksiz ishlashi ta’minlanishini ta’kidlaydi.

2023-yilda “O‘zbektelekom” AK asosiy e’tiborni qamrov zonasini kengaytirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratdi. Kompaniya tomonidan 60 ming kilometrdan ortiq yangi optik tolali aloqa liniyalari yotqizildi va tarmoqning umumiy uzunligi 233.7 ming kilometrdan ortiqroqqa yetkazildi. Bu yuqori tezlikdagi Internetdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va O‘zbekiston bo‘ylab 6 000 dan ortiq baza stansiyalarini modernizatsiya qilish, jumladan, Samarqandda 1 200 dan ortiq yangi baza stansiyalarini ishga tushirish imkonini berdi. Bundan tashqari, Kompaniya VoLTE texnologiyasini faol rivojlantirmoqda va Toshkent hamda Samarqand kabi yirik shaharlarda 5G tarmog‘i qamrovini kengaytirmoqda.

2023-yilda, Ookla ma’lumotlariga ko‘ra, “O‘zbektelekom” AK birinchi va ikkinchi choraklarda O‘zbekistonda eng tez mobil Internetga ega operator sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, Kompaniya brendlar reytinglarida o‘z o‘rnini mustahkamladi, O‘zbekiston Marketing assotsiatsiyasining e’tirofiga sazovor bo‘ldi va “Kommunikatsiyalar” yo‘nalishi bo‘yicha “Yil brendi” tanlovida g‘olib bo‘ldi.

## Faoliyat geografiyasi

**Kompaniya yirik shaharlarda ham, mamlakatning chekka hududlarida ham qamrovni ta’minlovchi, rivojlangan filiallar tarmog‘iga ega. “O‘zbektelekom” AK 2023-yilda optik tolali infratuzilmani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan holda tarmoqni kengaytirishni davom ettirdi. Modernizatsiya va yangi baza stansiyalarining qurilishi, shu jumladan, Toshkent va Samarqandda 5G texnologiyasi joriy etilishi mobil aloqa sifatini sezilarli darajada oshirdi.**

**233,7** ming km  
UMUMIY TARMOQ UZUNLIGI

# 2023-yildagi asosiy voqealar

## Yanvar

**16.01.2023**

“O‘zbektelekom” AK televideniye va kino ko‘rish uchun ikkita yangi platforma — “TelecomTV” va “MediaBox” platformalarini ishga tushirdi. “O‘zbektelekom” AKdan televideniye” aksiyasi doirasida 16-yanvardan 15-fevralga qadar abonentlar 60+ kanal va videokontentdan bepul foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

## Fevral

**28.02.2023**

Barselona shahrida “MWC Barcelona-2023” Butunjahon mobil aloqa kongressi bo‘lib o‘tdi va unda O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vaziri o‘rinbosari Jamol Maxsudov boshchiligida “O‘zbektelekom” AK vakillari ishtirok etdi. Tadbirda Kompaniya tomonidan xorijiy hamkorlar bilan O‘zbekistonda telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish bo‘yicha shartnomalar tuzilishi rejalashtirilgan.

## Mart

**02.03.2023**

“O‘zbektelekom” AK tomonidan xodimlarning kasbiy ko‘nikmalarini oshirish maqsadida o‘quv kurslari va seminarlar tashkil etildi. 2023-yilning yanvar-fevral oylarida 500 nafarga yaqin xodim, jumladan, 204 nafar yosh mutaxassislar malaka oshirish kurslarida o‘qitildi. Kurslar axborot xavfsizligi va mahalliy tarmoqlarni boshqarishdan tortib, blokcheyn texnologiyalari va biznes-jarayonlarini modellashtirishgacha bo‘lgan mavzularni qamrab oldi. O‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan xodimlarga sertifikatlar taqdim etildi.

**20.03.2023**

“O‘zbektelekom” AK 2023-yil 17-19-mart kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan taekvondo ITF bo‘yicha Markaziy Osiyo chempionatini qo‘llab-quvvatladi. Musobaqada O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston sportchilari ishtirok etdi. Kompaniya xalqaro arenada mamlakat nomidan ishtirok etayotgan sportchilarni qo‘llab-quvvatlashda davom etishga tayyorligini bildirdi.

## Aprel

**04.04.2023**

“O‘zbektelekom” AK mobil aloqa tarmog‘ini modernizatsiya qilish va 5G aloqasini joriy etishga qaratilgan “Yangilash mavsumi” loyihasini ishga tushirdi. Toshkent shahrida 1,1 Gbit/s gacha mobil Internet tezligini ta‘minlovchi 60 dan ortiq 5G baza stansiyalari foydalanishga topshirildi. O‘zbekistonda birinchi marta iOS 16.4 operatsion tizimiga ega “Apple” qurilmalari foydalanuvchilari 5G dan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Loyiha doirasida butun mamlakat bo‘ylab 3 000 dan ortiq mavjud stansiyalarni yangilash va 2 000 ta yangi stansiyalarni qurish rejalashtirilgan. Hududlarda tarmoqni modernizatsiya qilish ishlari davom etmoqda.

## May

**20.05.2023**

“O‘zbektelekom” AK “Telekommunikatsiyalar, Internet” yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkazilgan tanlovning g‘olibi bo‘lib, iste‘molchilar hamda Milliy marketing assotsiatsiyasining ekspert hakamlar hay‘atining e‘tirofiga sazovor bo‘ldi.

**26.05.2023**

Mintaqaviy hamdo‘stlik davlatlarining aloqa operatorlari kengashining 44-majlisi doirasida “O‘zbektelekom” AK “Telecom Devices Pro” MChJ, “Global Optical Communication Uzbekistan” QK va “Qirg‘iztelekom” OAJ bilan hamkorlik memorandumlarini imzoladi. Qo‘shma korxonalar optik tolali kabellar va telekommunikatsiya qurilmalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, O‘zbekistonda aloqa infratuzilmasini rivojlantirish va telekommunikatsiya xizmatlarini yaxshilashga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

## Iyun

**28.06.2023**

100 dan ortiq xalqaro telekommunikatsiya operatorlari ishtirok etgan Berlindagi “GCCM Europe — 2023” konferensiyasida “O‘zbektelekom” AK “2023-yiling MDH davlatlari mintaqaviy operatori” mukofoti bilan taqdirlandi. Tadbirning boshqa ishtirokchilari orasida “Deutsche Telekom”, “China Mobile International”, “STC” va “Telecom Italia Sparkle” kabi yirik jahon o‘yinchilari ham bor edi. 2022-yilda Kompaniya “MDH mamlakatlaridagi eng dinamik mintaqaviy operator” mukofotiga ham sazovor bo‘ldi.

## Iyul

**26.07.2023**

“O‘zbektelekom” AKda xodimlarning malakasini oshirish bo‘yicha dasturlar amalga oshirildi. “O‘zMobayl” filiali tomonidan Samarqand va Navoiy viloyatlarida maxsus treninglar tashkil etilib, ularda “time-menejment”, kommunikatsiyalar va stressni boshqarish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, Toshkentda aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishda qaratilgan, sotuv va samarali muloqot ko‘nikmalarini o‘z ichiga olgan uch kunlik treninglar bo‘lib o‘tdi.

**29.07.2023**

“O‘zbektelekom” AK “Speedtest Awards 2023” tanlovining “Eng tez mobil tarmoqning tezligi” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib bo‘ldi. 144 497 ta foydalanuvchining mobil Internet tezligini testlash natijalariga ko‘ra, Kompaniya Ookla® dan yuqori mukofotga sazovor bo‘ldi, bunda, Kompaniya Speed Score™ 36,96 ball bilan eng yaxshi natijani ko‘rsatdi. Bunga tarmoq modernizatsiya qilinishi, 3000 dan ortiq baza stansiyalarini yangilash va Toshkent hamda Samarqandda 5G ni ishga tushirish natijasida erishildi.

# 2023-yildagi asosiy voqealar

## Avgust

25.08.2023

“O‘zbektelekom” AKda tahrirlovchi.uz loyihasi va “Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati” taqdimoti bo‘lib o‘tgan tadbir o‘tkazildi. Loyiha o‘zbek tilidagi matn tahrirlash hamda kirill va lotin alifbosiga avtomatik ravishda o‘zgartirish, shuningdek, xatolarni tuzatish uchun veb-resursni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, axborot texnologiyalari sohasiga oid 10 000 ta atamani o‘z ichiga olgan lug‘at taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

## Sentabr

20.09.2023

2023-yilning 19-20-sentabr kunlari Toshkent shahrida Raqamli texnologiyalar vazirligi (RTV) tomonidan “O‘zbektelekom” AK va INHA universiteti bilan hamkorlikda ikkinchi Markaziy Osiyo piring va o‘zaro bog‘lanish (CAPIF 2) forumi bo‘lib o‘tdi. Forumda “Google” va “Internet Initiative Japan” kabi yirik kompaniyalar vakillari yig‘ildi va unda mintaqada “IPv6”ni qo‘llash hamda ushbu texnologiya bilan bog‘liq xavfsizlik masalalari muhokama qilindi.

## Oktabr

25.10.2023

RTV tomonidan tashkil etilgan “ICTWEEK-2023” haftaligi doirasida “O‘zbektelekom” AKda Markaziy Osiyodagi «IPv6 Enhanced» sammiti bo‘lib o‘tdi va unda “IPv6” bo‘yicha O‘zbekiston Kengashi tashkil etildi. “O‘zbektelekom” AK “IPv6 Innovation Award” mukofotiga sazovor bo‘ldi.

## Noyabr

13.11.2023

O‘zbektelekom” AK O‘zbekiston hududida mashhur “PUBG Mobile” o‘yini uchun “Tencent CDN” serverlarini mahalliyashtirish loyihasi amalga oshirilishi boshlanganligini e‘lon qildi. Bu “O‘zbektelekom” AKni mamlakatimizda bunday mahalliyashtirish ishlarini amalga oshirayotgan birinchi va yagona kompaniyaga aylantiradi. Loyiha yakunlangandan so‘ng, o‘yinchi mahalliy serverlarga ulanishlari mumkin bo‘ladi, bu esa ping va o‘yin tajribasi sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi, shuningdek, yanada barqaror ulanishni va o‘yin davomida kechikishlar minimal darajada bo‘lishini ta‘minlaydi.

## Dekabr

16.12.2023

“O‘zbektelekom” AK 5 542 046 dona aksiyani 6 000 so‘mdan, ya‘ni ichki qiymatidan 35 foiz chegirma bilan sotish orqali, aksiyalarning birlamchi ommaviy joylashtirilishini (IPO) muvaffaqiyatli o‘tkazdi. Natijada, obuna 131 foizdan oshdi, “Jett” ilovasi orqali 11 000 ga yaqin chakana investorlar jalb qilindi va 15 000 dan ortiq hisob raqamlari ochildi. Chakana investorlar tomonidan 2 million donadan ortiq aksiyalar (aksiyalarning umumiy hajmidan 40 foizga yaqin), korporativ investorlar tomonidan esa 3,5 million dona aksiyalar sotib olindi.

Ushbu mablag‘lar infratuzilmani modernizatsiya qilish, jumladan, Ma‘lumotlarni qayta ishlash markazlarini qurish va optik tolali tarmoqlarni kengaytirishga yo‘naltiriladi. Aksiyalar investorlar balansiga t+2 qoidasiga muvofiq, ya‘ni 2023-yil 20-dekabrda kirim qilinadi.

27.12.2023

“O‘zbektelekom” AK Germaniyaning “TÜV Thüringen International” xalqaro sertifikatlashtirish tashkilotidan ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimiga muvofiqlik sertifikatini oldi. Kompaniyaning O‘zbekistondagi rasmiy hamkori — “SERT MANAGEMENT” MChJ tomonidan o‘tkazilgan auditdan muvaffaqiyatli o‘tilgandan so‘ng, Kompaniya, shu jumladan, uning barcha tarkibiy bo‘linmalari faoliyati uchun xalqaro muvofiqlik sertifikati berildi.

31.12.2023

2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, Guruhning joriy majburiyatlari uning aktivlaridan 3.68 trillion so‘mga oshdi. Majburiyatlarning asosiy qismini qisqa muddatli zaymlar (2.08 trln so‘m) va savdo kreditor qarzdorlik (1.70 trln so‘m) tashkil etadi.

## 2.

# KORPORATIV BOSHQARUV VA BARQAROR RIVOJLANISH MASALALARINI BOSHQARISH

- 22 — Korporativ boshqaruv tuzilmasi va organlari
- 33 — Dividend siyosati
- 34 — Manfaatlarni to'qnashuvi
- 35 — Ichki va tashqi audit xizmati
- 37 — Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurash
- 42 — Iqtisodiy resurslarni boshqarish



# Korporativ boshqaruv tuzilmasi va organlari


**Korporativ boshqaruv Kompaniya barqaror rivojlanishining asosiy elementi hisoblanib, shaffoflik, mas’uliyat va barcha manfaatdor tomonlar o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlashga qaratilgan. Kompaniyaning boshqaruv organlari amaldagi qonunchilik va ichki reglamentlarga qat’iy rioya qilgan holda ish olib boradi.**

## KOMPANIYANING ASOSIY BOSHQARUV ORGANLARI QUYIDAGILARDIR:



Ushbu organlar strategik boshqarish, faoliyatni nazorat qilish va Kompaniyaning uzoq muddatli maqsadlariga erishish hamda aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning manfaatlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan qarorlar qabul qilinishini ta’minlaydi.

## “O‘ZBEKTELEKOM” AKNING KORPORATIV BOSHQARUV SXEMASI



## Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi Kompaniyaning strategik rivojlanishi, boshqaruv tuzilmasi va hisoboti bo‘yicha asosiy qarorlar qabul qilinishini ta’minlovchi oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining faoliyati O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari, shu jumladan “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, Kompaniya Ustavi, shuningdek, Samaradorlik va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi tomonidan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi bilan tartibga solinadi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi Kompaniya Ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliyaviy yil tugaganidan keyin, olti oydan kechiktirmay o‘tkaziladi. Unda Kompaniyaning yillik hisoboti va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar tasdiqlanadi, Kuzatuv kengashi saylanadi, shuningdek, boshqaruv raisi — Kompaniyaning kollegial ijroiya organi rahbari bilan Mehnat shartnomasini uzaytirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida qarorlar qabul qilinadi.

Yillik yig‘ilishlar bilan bir qatorda, boshqaruvning oliy organi ishtiroki talab etiladigan masalalarni tezkor hal etish uchun zaruratga ko‘ra, Aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig‘ilishlari o‘tkaziladi.

Kompaniya aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi Kompaniyaning strategik rivojlanishi va boshqaruvini belgilovchi asosiy qarorlarni qabul qilish bo‘yicha mutlaq vakolatlariga ega.

### Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining asosiy vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Kompaniya Ustaviga o‘zgartirishlar kiritish, uning yangi tahririni tasdiqlash;
- Kompaniyani qayta tashkil etish yoki tugatish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish, tugatuvchini tayinlash va tugatish balansini tasdiqlash;
- Kuzatuv kengashi va Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasini tuzish, ularning a‘zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;
- Kompaniyaning ustav kapitalini oshirish yoki kamaytirish;
- Kompaniyaning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini shakllantirish, uning rahbarini tayinlash va uning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

- yillik hisobot, Biznes-reja va Kompaniyaning rivojlanish strategiyasini tasdiqlash;
- foyda va zararni taqsimlash;
- korporativ obligatsiyalar va qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish, shuningdek, qaytarib sotib olish yoki imtiyozli huquqni qo‘llamaslik to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;
- aksiyalarni joylashtirish va yirik bitimlarni, shu jumladan affillangan shaxslar bilan bitimlarni amalga oshirish xarajatlarini aniqlash;
- auditorlik tashkilotini tayinlash, uning xizmatlari narxini tasdiqlash va shartnoma tuzish;
- Kuzatuv kengashi va ijroiya organi a‘zolariga to‘lanadigan haq va kompensatsiyalarni belgilash;
- Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalariga amal qilish yuzasidan qarorlar qabul qilish.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga qonunchilik hujjatlariga va Kompaniya Ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiradi. Ushbu vakolatlar Kompaniya faoliyatining shaffofligini, samarali boshqaruvini va barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan.

Kompaniya barcha aksiyadorlarga qonunchilik normalari va reglamentlarga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish imkoniyatini taqdim etadi. Yig‘ilishda ishtirok etish huquqi ushbu tadbir o‘tkazilishi uchun maxsus shakllantirilgan aksiyadorlar reyestrda ro‘yxatga olingan aksiyadorlarga beriladi. Reyestrda o‘zgartirishlar kiritilishiga faqat xatolarni tuzatish yoki buzilgan huquqlarni tiklash hollarida yo‘l qo‘yiladi, bu esa shaffoflikni va aksiyadorlarning huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi.

### Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida quyidagilar ishtirok etish huquqiga ega:

- aksiyadorlar va ularning vakolatli vakillari;
- Kompaniya Kuzatuv kengashi a‘zolari;
- boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlari;
- majlis vakolatlari doirasida muhokama qilish va qarorlar qabul qilishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar.

Yig‘ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakillari yig‘ilish o‘tkazilishi haqidagi e’londa ko‘rsatilgan joyda va vaqtda ro‘yxatdan o‘tadilar. Ro‘yxatdan o‘tishda aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, vakillar esa, ishonchnomani

taqdim etadilar. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma notarial ravishda tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga ishonchnoma uning rahbarining imzosi bilan beriladi va ushbu yuridik shaxsning muhri (muhr mavjud bo‘lsa) bilan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxslar bo‘lgan aksiyadorlar vakolatlarini ta‘sis hujjatlarida belgilangan va o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan vakolatli shaxslari orqali ishtirok etadilar.

Keyingi yillarda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlari elektron ovoz berish tizimi, ya‘ni **evote.uz** orqali tashkil etilayotganini kuzatishimiz mumkin.

## Kuzatuv kengashi

“O‘zbektelekom” AK Kuzatuv kengashi Kompaniya faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va ijroiya organi vakolatiga kiradigan masalalar bundan mustasno. Uning faoliyati O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari, Kompaniya Ustavi va Korporativ boshqaruv kodeksi bilan tartibga solinadi.

“O‘zbektelekom” AK Kuzatuv kengashi samarali korporativ boshqaruv va nazoratni ta‘minlagan holda Kompaniyani strategik boshqarishda asosiy rol o‘ynaydi. Kengash rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi, boshqaruv va ichki nazoratning xalqaro standartlarini

Kompaniyamiz ham Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarini o‘tkazish uchun ushbu tizimdan foydalanadi.

Ushbu tizim ovoz berish uchun qulay va universal vosita bo‘lib, aksiyadorlarga yig‘ilishlarda ro‘yxatdan o‘tish va veb-saytda elektron saylov byulletenini to‘ldirish orqali ovoz berish imkonini beradi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini tashkil etishga bunday yondashuv ishtirok etish uchun teng imkoniyatlarni, jarayonlarning shaffofligini va barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini himoya qilishni ta‘minlaydi.

joriy etishga ko‘maklashadi, shuningdek, Kompaniya faoliyatining eng muhim masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi. U korporativ boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish, risklarni boshqarish va aksiyadorlar bilan o‘zaro aloqalar masalalari uchun mas‘uldir. Kengash jarayonlarning shaffofligini ta‘minlaydi, biznes-strategiyaning amalga oshirilishini nazorat qiladi va yuqori boshqaruv darajasida kadrlar tayinlanishini tartibga soladi. Bundan tashqari, u barqaror rivojlanish, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik sohasida korporativ siyosatni shakllantirishda ishtirok etadi, bu esa Kompaniyaning uzoq muddatli o‘shirishini va barqarorligini ta‘minlaydi.

## Kuzatuv kengashi a‘zolarini saylash va vakolatlarini tugatish

Kuzatuv kengashining tarkibi va tuzilmasi korporativ boshqaruv, shaffoflik va Kompaniya faoliyatini mustaqil nazorat qilish tamoyillarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Kengash aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ovoz berish yo‘li bilan shakllantiriladi va cheklanmagan tarzda qayta saylanish imkoniyati bilan uch yil muddatga saylanadigan to‘qqiz nafar a‘zodan iborat bo‘ladi. Ijroiya organining a‘zolari, Kompaniya xodimlari, affilangan va shu‘ba korxonalarining xodimlari kengash tarkibiga kiritilishi mumkin emas.

Kompaniya aksiyalarini fond birjasining birja kotirovkasi varag‘iga kiritishda korporativ boshqaruv darajasini oshirish va mustaqil nazoratni ta‘minlash maqsadida kengashning kamida bitta a‘zosi mustaqil maqomga ega bo‘lishi lozim. **Kengashning mustaqil a‘zosi quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:**

- So‘nggi uch yil davomida Kompaniya va/yoki uning affilangan shaxslari bilan mehnat munosabatlari yoki biznes-alloqalari mavjud emasligi.

- Kompaniya va unga aloqador tashkilotlarning aksiyadori, ta‘sischisi yoki ishtirokchisi maqomi mavjud emasligi.
- Kompaniya bilan muhim tijorat aloqalari, jumladan, tovarlar yoki xizmatlar yetkazib berish bo‘yicha yirik shartnomalar mavjud emasligi.
- Kompaniya boshqaruvi va ichki nazorat organlari a‘zolari bilan qarindoshlik aloqalari mavjud emasligi.
- Davlat boshqaruvi organi yoki davlat korxonasining xodimi emasligi.

Kuzatuv kengashi a‘zolarini saylash kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi, bu esa nomzodlar o‘rtasida ovozlarining adolatli taqsimlanishini ta‘minlaydi va aksiyadorlarga Kompaniyaning strategik ustuvorliklarini hisobga olish imkonini beradi. Nomzodlarga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar Kompaniya Ustavida yoki Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarorlari bilan belgilanishi mumkin.

“O‘zbektelekom” AK Kuzatuv kengashi faoliyatining mustaqilligi va shaffofligini ta‘minlab, korporativ boshqaruvning ilg‘or standartlariga rioya qilinishiga intiladi. Kuzatuv kengashi a‘zolari strategik nazoratni amalga oshirish va Kompaniya faoliyatini nazorat qilish uchun barcha zarur vakolatlariga ega.

### Kengash a‘zolari o‘z faoliyati doirasida quyidagilarga haqli:

- Yig‘ilishlarda qatnashish, takliflar kiritish va Kompaniyani rivojlantirishning asosiy masalalari bo‘yicha ovoz berish.
- Kompaniya faoliyati, shu jumladan moliyaviy va operatsion ko‘rsatkichlar, strategik tashabbuslar va Biznes-rejalar haqida to‘liq, ishonchli va o‘z vaqtida ma‘lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo‘lish.
- Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga muvofiq o‘z vazifalarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar uchun haq va kompensatsiya olish.

### Kuzatuv kengashi a‘zolari quyidagilarga:

- Kompaniyaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi manfaatlarini ko‘zlab, vijdonan, professional tarzda harakat qilishga;
- qarorlarni qabul qilish jarayonida shaffoflik, mustaqillik va etika tamoyillariga amal qilishga;
- manfaatlar to‘qnashuvi holatlariga yo‘l qo‘ymaslikka, bitimlarga manfaatdorligi mavjudligi haqidagi ma‘lumotlarni zudlik bilan oshkor qilishga va tegishli masalalar bo‘yicha ovoz berishda betaraf bo‘lishga;
- xizmat mavqeyidan va insayder ma‘lumotlaridan shaxsiy manfaatlar uchun yoki Kompaniyaga zarar yetkazgan holda foydalanmaslikka majbur.

## Kuzatuv kengashining tarkibi



### Shermatov Sherzod Xotamovich

#### KUZATUV KENGASHI RAISI

Tug‘ilgan yili:  
**1977**

Fuqaroligi:  
**O‘zbekiston**

#### Ma‘lumoti:

- 1998-yil — Toshkent davlat texnika universiteti
- 2000-yil — Yel universiteti

#### Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2018–2021-yillar — O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi vaziri
- 2021-yil — O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri

## Kuzatuv kengashining tarkibi

**Pecos Oleg  
Andreyevich**

## KUZATUV KENGASHI A'ZOSI

Tug'ilgan yili: **1988** | Fuqaroligi: **O'zbekiston**

## Ma'lumoti:

- 2011-yil — Sankt-Peterburg davlat telekommunikatsiyalar universiteti

## Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2020-yildan hozirgi vaqtgacha — raqamli iqtisodiyot va elektron boshqaruv masalalari bo'yicha raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o'rinbosari

**Nasritdinxo'jaev Omonullo  
Zabihullayevich**

## KUZATUV KENGASHI A'ZOSI

Tug'ilgan yili: **1971** | Fuqaroligi: **O'zbekiston**

## Ma'lumoti:

- 1994-yil — Toshkent davlat universiteti

## Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2023-yil — O'zbekiston Respublikasi tog'-kon sanoati va geologiya vazirining birinchi o'rinbosari
- 2020–2023-yillar — O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining birinchi o'rinbosari

**Sabirov Murodjon  
Maxmudovich**

## KUZATUV KENGASHI A'ZOSI

Tug'ilgan yili: **1974** | Fuqaroligi: **O'zbekiston**

## Ma'lumoti:

- 1996-yil — Toshkent elektrotexnika aloqa instituti
- 2001-yil — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- 2012-yil — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi

## Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2019-yildan hozirgi vaqtgacha — "Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi" davlat unitar korxonasi bosh direktori

**Irisbekova Kammuna  
Narinbayevna**

## KUZATUV KENGASHI A'ZOSI

Tug'ilgan yili: **1960** | Fuqaroligi: **O'zbekiston**

## Ma'lumoti:

- 1982-yil — Toshkent avtomobil yo'llar instituti
- 1991-yil — S. Orjonikidze nomidagi Rossiya davlat boshqaruv akademiyasi
- 2009-yil — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

## Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2017-yildan hozirgi vaqtgacha — "Aloqabank" boshqaruvi raisi

**Egamberdiyev Jamshid  
Sharifjanovich**

## KUZATUV KENGASHI A'ZOSI

Tug'ilgan yili: **1982** | Fuqaroligi: **O'zbekiston**

## Ma'lumoti:

- 2004-yil — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- 2006-yil — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

## Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2020-yil — O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining o'rinbosari (investitsiya va moliyaviy masalalar bo'yicha)

**Miraliyev Alisher  
Erkinovich**

## KUZATUV KENGASHI A'ZOSI

Tug'ilgan yili: **1983** | Fuqaroligi: **O'zbekiston**

## Ma'lumoti:

- 2001-yil — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- 2008-yil — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshidagi Oliy biznes maktabi

## Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2020-yildan hozirgi vaqtgacha — O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori

**Mehmet Ekinalan**

## KUZATUV KENGASHI A'ZOSI

Tug'ilgan yili: **1961** | Fuqaroligi: **Turkiya**

## Ma'lumoti:

- 1984-yil — Karadeniz texnika universiteti
- 1989-yil — Jahon dengizchilik universiteti

## Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2011-yildan hozirgi vaqtgacha — Amerikaning «Valera Energy» kompaniyasining mintaqaviy menejeri

**Ishanxodjayev Asror  
Aslanovich**

## KUZATUV KENGASHI A'ZOSI

Tug'ilgan yili: **1960** | Fuqaroligi: **O'zbekiston**

## Ma'lumoti:

- 1983-yil — Toshkent elektrotexnika aloqa instituti

## Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2020-yildan hozirgi vaqtgacha — Axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiyalar xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi

## Kuzatuv kengashi qo‘mitalari

Boshqaruv va qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish, shuningdek, audit, kompensatsiya, strategiya va investitsiyalar kabi asosiy masalalarni batafsil ko‘rib chiqish uchun Kompaniyada ixtisoslashtirilgan qo‘mitalar tashkil etilgan. Ular boshqaruv funksiyalarini qayta taqsimlash, muhim mavzularni chuqur tahlil qilish hamda yuqori darajadagi nazorat va strategik boshqaruvni amalga oshirish imkonini beradi.

### “O‘zbektelekom” AK korporativ boshqaruv tuzilmasida quyidagi qo‘mitalar faoliyat yuritadi:

- Audit qo‘mitasi — moliyaviy hisobot, ichki audit va risklarni boshqarish tizimini qiladi.
- Tayinlovlar va haq to‘lash qo‘mitasi — kadrlar siyosati, boshqaruv samaradorligini baholash va motivatsiya tizimini rivojlantirish masalalari bilan shug‘ullanadi.
- Strategiya va investitsiyalar qo‘mitasi — Kompaniyaning strategik rivojlanishini shakllantirish va investitsiya loyihalarini baholash uchun mas‘ul.
- Korruptsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi.

## Tayinlovlar va haq to‘lash qo‘mitasi

### Qo‘mitaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- korporativ boshqaruv tamoyillariga muvofiq kadrlar bilan bog‘liq masalalarni samarali boshqarish va rahbar xodimlar mehnatiga haq to‘lanishini ta‘minlash;
- Kompaniyaning rahbar xodimlarini tanlash, baholash va motivatsiyalash bo‘yicha samarali tizimini shakllantirishda Kuzatuv kengashiga ko‘maklashish;
- Kompaniyaning rahbar xodimlarini tayinlash, ularning malakasini oshirish va ularga haq to‘lash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- shaffoflikni va ish haqi to‘lanishi tizimining ilg‘or tajribalarga hamda Kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlariga muvofiqligini ta‘minlash.

## Audit qo‘mitasi

### Qo‘mitaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Kompaniya faoliyatining barcha jabhalarida risklarni boshqarish, ichki nazorat va korporativ boshqaruv tizimlarining muvofiqligi va samaradorligini mustaqil, xolisona baholash;
- tashqi va ichki auditning xolisligini nazorat qilish;
- Qo‘mita yig‘ilishlariga kiritilgan masalalarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish orqali Kompaniyada korporativ boshqaruvni takomillashtirish.

Qo‘mita moliyaviy hisobotlarning to‘liqligi va ishonchligi, hisob siyosati va asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar ustidan nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, tashqi auditorlarni tanlash va baholashda ishtirok etadi. Uning vazifalariga ichki va tashqi auditni nazorat qilish, hisobotlarni va Kompaniya faoliyatini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalarni ko‘rib chiqish kiradi. Bundan tashqari, Qo‘mita ichki nazorat tizimini, risklar boshqarilishini va axborot siyosatiga rioya qilinishini tahlil qilib, audit jarayonlarining shaffofligi va mustaqilligini ta‘minlaydi.

Qo‘mita rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va baholash bo‘yicha takliflar tayyorlaydi, shuningdek, Kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanishiga yo‘naltirilgan mehnatga haq to‘lash tamoyillarini tahlil qiladi va ishlab chiqadi. Uning vazifalariga ijroiya organi va kadrlar bo‘limi bilan o‘zaro hamkorlik qilish, nomzodlarni dastlabki baholash, ularning malakasini tekshirish va mavjud motivatsiya tizimining samaradorligini nazorat qilish kiradi.

Bundan tashqari, Qo‘mita mehnatga haq to‘lash siyosatining bozor sharoitlari va Kompaniya strategiyasiga muvofiqligini nazorat qilib, kadrlar sohasida qarorlar qabul qilish jarayonining shaffofligi va adolatligini ta‘minlaydi.

## Strategiya va investitsiyalar qo‘mitasi

Qo‘mita strategik, moliyaviy va korporativ masalalarni dastlabki ko‘rib chiqish, shu jumladan strategiyani amalga oshirishni ishlab chiqish va monitoring qilish, faoliyat samaradorligini baholash, foydani taqsimlash, boshqa tashkilotlarda ishtirok etish, shu‘ba va tobe tashkilotlarni boshqarish ishlari bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, u yirik bitimlarni ma‘qullash, ustav kapitali va tashkiliy tuzilmani o‘zgartirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi, shuningdek, Kompaniyaning yillik hisobotiga kiritish uchun amalga oshirilgan ishlari haqida hisobot tayyorlaydi.

## Korruptsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi

Korruptsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi Kompaniyaning odob-axloq va etika kodeksiga, shuningdek, Korruptsiyaga qarshi siyosatga rioya etilishini nazorat qiladi.

### Qo‘mitaning maqsadlari va vazifalari:

- Xalqaro standartlarga asoslangan Korruptsiyaga qarshi menejment tizimini joriy etish va nazorat qilish.
- Kompaniyaning barcha xodimlari, shu jumladan rahbariyat tomonidan Odob-axloq va etika kodeksiga hamda Korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatiga rioya etilishini nazorat qilish.
- Kompaniyaning ishbilarmonlik obro‘sinini oshirish va axloqiy standartlarga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish.
- Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha Kompaniya xodimlari va rahbariyati o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borish.

Qo‘mita faoliyati ishbilarmonlik etikasining yuqori darajasiga erishilishini ta‘minlash, korruption risklarni bartaraf etish va aksiyadorlar, hamkorlar va butun jamiyat tomonidan ishonchni oshirishga qaratilgan.

## Yuqori boshqaruv organi faoliyati samaradorligini baholash

Kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimi Kuzatuv kengashi va uning a‘zolari faoliyatini muntazam ravishda baholashni, shu jumladan ularning strategik maqsadlarni amalga oshirishga qo‘shgan hissasini, axloq va mustaqillik tamoyillariga rioya etishini, shuningdek, Kengash faoliyatidagi ishtirokini tahlil qilishni nazarda tutadi.

Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalari va “O‘zbektelekom” AK Kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq 2023-yilda Kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash ishlari amalga oshirildi. Audit “F-PLUS AUDIT” MChJ tomonidan o‘tkazildi va unda korporativ boshqaruvning asosiy aspektlari har tomonlama tahlil qilindi.

Baholash natijalariga ko‘ra, “O‘zbektelekom” AK “Yuqori” darajasini (672 ball yoki foiz shkalasi bo‘yicha 56 foiz) oldi, bu esa korporativ boshqaruv tizimining barqarorligi va samaradorligidan dalolat beradi. Audit davomida boshqaruv jarayonlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

### Baholash uslubiyoti belgilangan shkalaga asoslandi:

- Yuqori samaradorlik — 600 ball va undan yuqori
- Qoniqarli samaradorlik — 0 dan 600 ballgacha
- Past samaradorlik — -600 dan 0 ballgacha
- Qoniqsiz samaradorlik — -600 ball dan past.

**Mustaqil baholash natijalari “O‘zbektelekom” AKning ochiqlik, hisobdorlik va barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilishini tasdiqlaydi, shuningdek, xalqaro standartlarga muvofiq korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.**

## Boshqaruv Ijroiya organi

Kompaniyaning joriy faoliyatini boshqarish kollegial ijroiya organi — boshqaruv raisi rahbarligida faoliyat yurituvchi boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv operatsion boshqaruv, belgilangan maqsadlarga erishish monitoringi va kompaniyaning asosiy tashabbuslarini amalga oshirish uchun javobgardir.

Boshqaruv o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlariga, Kompaniya Ustaviga, shuningdek, ichki me‘yoriy hujjatlarga amal qiladi.

### Boshqaruv tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Boshqaruv raisi;
- raisning transformatsiya, texnik ekspluatatsiya va mahalliyashtirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari
- raisning moliyaviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari;
- raisning tijorat masalalari bo‘yicha o‘rinbosari;
- raisning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar bo‘yicha o‘rinbosari;
- raisning axborot xavfsizligi va rejim bo‘yicha o‘rinbosari;
- asosiy tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari.

Boshqaruv a‘zolari uch yil muddatga saylanadi va belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

### Boshqaruv tarkibi

#### Xasanov Nazirjon Nabijanovich

##### BOSHQARUV RAISI

Tug‘ilgan yili: **1970** | Fuqaroligi: **O‘zbekiston**

##### Ma‘lumoti:

- 2002-yil — Toshkent elektrotexnika instituti
- 2012-yil — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshidagi Oliy biznes maktabi

##### Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari

- 2023-yildan hozirgi vaqtgacha — “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raisi
- 2018–2023-yillar — “O‘zbektelekom” AK bosh direktori

### Boshqaruvning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va tarmoq dasturlarini hisobga olgan holda kompaniyaning barqaror rivojlanishini ta‘minlash;
- modernizatsiya, raqamlashtirish va ish samaradorligini oshirish, shu jumladan biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish bo‘yicha o‘rta muddatli va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ilg‘or texnologik yechimlarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish;
- asbob-uskunalar va ehtiyot qismlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, shuningdek, xom ashyo va materiallarni xarid qilishni optimallashtirish dasturlarini joriy etish;
- investitsiyalar va moliyalashtirishni jalb qilish, investitsiya loyihalari va dasturlari amalga oshirilishini monitoring qilish;
- risklarni, shu jumladan obro‘ga oid risklar va normativ hujjatlarga rioya qilish bilan bog‘liq risklarni boshqarish;
- ichki biznes-jarayonlarning samaradorligini va kompaniyaning strategik qarorlari bajarilishini nazorat qilish.

Bundan tashqari, boshqaruvning faoliyati kompaniya faoliyati doirasida shaffoflik, korporativ boshqaruv va ijtimoiy javobgarlik tamoyillariga rioya qilinishiga qaratilgan.

#### Aripov Jaxongir Abduhakimovich

##### BOSHQARUV RAISING BIRINCHI O‘RINBOSARI

Tug‘ilgan yili: **1982** | Fuqaroligi: **O‘zbekiston**

##### Ma‘lumoti:

- 2003-yil — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- 2005-yil — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

##### Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2023-yildan hozirgi vaqtgacha — “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raising birinchi o‘rinbosari
- 2019–2023-yillar — “O‘zbektelekom” AK bosh direktorining birinchi o‘rinbosari

- 2014-yil — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshidagi Oliy biznes maktabi, Biznes va boshqaruv (MBA)

#### Toxtiyarov Akram Nurmaxamatovich

##### BOSHQARUV RAISING MOLIYAVIY MASALALAR BO‘YICHA O‘RINBOSARI

Tug‘ilgan yili: **1982** | Fuqaroligi: **O‘zbekiston**

##### Ma‘lumoti:

- 2004-yil — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

##### Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2023-yildan hozirgi vaqtgacha — “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raising moliyaviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari
- 2020–2023-yillar — “O‘zbektelekom” AK bosh direktorining moliyaviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari

- 2006-yil — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

#### Rasulov Anvar Adxamovich

##### BOSHQARUV RAISING TIJORAT MASALALARI BO‘YICHA O‘RINBOSARI

Tug‘ilgan yili: **1990** | Fuqaroligi: **O‘zbekiston**

##### Ma‘lumoti:

- 2013-yil — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

##### Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2023-yildan hozirgi vaqtgacha — “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raising tijorat masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
- 2020–2023-yillar — “O‘zbektelekom” AK bosh direktorining tijorat masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi
- 2019–2022-yillar — “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi Xalqaro hamkorlik va aloqa operatorlari bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i

- 2016-yil — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

## Boshqaruv tarkibi

**Arifdjanov Akmal Zakirdjanovich****BOSHQARUV RAISING ISTIQBOLLI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSIYALAR BO‘YICHA O‘RINBOSARI**Tug‘ilgan yili:  
**1972**Fuqaroligi:  
**O‘zbekiston**

Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2023-yildan hozirgi vaqtgacha — “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raisining istiqbolli rivojlantirish va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari
- 2020–2023-yillar — “O‘zbektelekom” AK bosh direktorining istiqbolli rivojlantirish va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari

Ma‘lumoti:

- 1998-yil — Toshkent elektrotexnika aloqa instituti

**Berdiklichev Mardon Jaxongirovich****BOSHQARUV RAISING DAVLAT ORGANLARI BILAN O‘ZARO MUNOSABATLAR BO‘YICHA O‘RINBOSARI**Tug‘ilgan yili:  
**1983**Fuqaroligi:  
**O‘zbekiston**

Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2023-yildan hozirgi vaqtgacha — “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raisining davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar bo‘yicha o‘rinbosari
- 2020–2023-yillar — “O‘zbektelekom” AK bosh direktorining davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar bo‘yicha o‘rinbosari
- 2019–2020-yillar — “O‘zbektelekom” AKning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar bo‘yicha direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi

Ma‘lumoti:

- 2005-yil — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- 2019-yil — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

**Jurayev Eldorjon Azamovich****BOSHQARUV RAISING AXBOROT XAVFSIZLIGI VA REJIM BO‘YICHA O‘RINBOSARI**Tug‘ilgan yili:  
**1984**Fuqaroligi:  
**O‘zbekiston**

Ish joyi va oxirgi besh yil ichida tashkilotlarda egallab turgan lavozimlari:

- 2023-yildan hozirgi vaqtgacha — “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raisining axborot xavfsizligi va rejim bo‘yicha o‘rinbosari
- 2022–2023-yillar — “O‘zbektelekom” AK bosh direktorining axborot xavfsizligi va rejim bo‘yicha o‘rinbosari
- 2021–2022-yillar — “O‘zbektelekom” AK bosh direktorining axborot xavfsizligi, rejim va kadrlar bo‘yicha o‘rinbosari
- 2019–2021-yillar — 27317-h/q harbiy xizmatchisi, Qarshi sh.

Ma‘lumoti:

- 2006-yil — Davlat xavfsizlik xizmati instituti

# Dividend siyosati

**Kompaniya aksiyadorlarning farovonligini oshirish va kapitallashuvning barqaror o‘shishiga qaratilgan muvozanatli dividend siyosatiga amal qiladi. Asosiy maqsadlar barqaror to‘lovlar amalga oshirilishini, qarorlar qabul qilishda shaffoflikni ta‘minlash va aksiyadorlar manfaatlarini va biznes ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashdan iborat.**

Siyosat bir qator asosiy tamoyillarga asoslanadi:

**SHAFFOFLIK**

Kompaniya dividendlar to‘g‘risida qaror qabul qilinishi tartibi, ularning miqdori va to‘lanishi muddatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qiladi.

**ADOLAT**

Barcha aksiyadorlar dividendlar to‘lanishi va ularning shartlari to‘g‘risida ma‘lumot olishda teng huquqlarga ega.

**OQILONALIK**

Dividendlar Kompaniyaning investitsiya rejalarini hisobga olgan holda ijobiy moliyaviy natijalar mavjud bo‘lgandagina to‘lanadi.

**IZCHILLIK**

Dividend siyosatining qabul qilingan tamoyillari izchil amalga oshirilmoqda va takomillashtirilmoqda.

**BARQARORLIK**

Kompaniya to‘lovlarning prognozlashtirilishiga va ularning muntazam to‘lanishiga intilib, aksiyadorlarda uzoq muddatli istiqbolga ishonch hosil qilinishini ta‘minlaydi.

Dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qaror Kuzatuv kengashining tavsiyalari asosida aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi. Bunda, auditorlik xulosasi bilan tasdiqlangan Kompaniyaning sof foydasi, moliyaviy rejalar, aylanma mablag‘lar tarkibi va qarz yuki darajasi hisobga olinadi. Kompaniya sof foydaning kamida 30 foizini dividendlarga yo‘naltirishga intiladi va aksiyalarning bozor qiymati rivojlanishini va o‘shishini ta‘minlaydi.

Dividendlar to‘lanishi tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Kompaniya Ustavi va ichki me‘yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Dividendlar joylashtirilmagan aksiyalar, Kompaniyaning o‘ziga tegishli bo‘lgan aksiyalar bo‘yicha, shuningdek,

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda hisoblanmaydi. Kompaniya aksiyadorlar oldida e‘lon qilingan dividendlarni to‘lash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish, shu jumladan barcha tegishli xarajatlarni qoplash uchun javobgar hisoblanadi.

Kompaniya to‘lovlarning barqarorligi va prognozligiga e‘tibor qaratgan holda, Dividend siyosatini takomillashtirishni davom ettiradi. Foyda taqsimoti masalalarida oshkorlikni oshirish, shuningdek, kapital tuzilmasini optimallashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Dividendlar to‘lanishi investitsiya dasturlari va operatsion faoliyatga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligi uchun uzoq muddatli moliyaviy rejallashtirishga e‘tibor qaratiladi.

# Manfaatlar to‘qnashuvi

“O‘zbektelekom” AK manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish masalalarida shaffoflik, qonuniylik va xolislik tamoyillariga amal qiladi. Kompaniyada milliy qonunchilik normalari, shuningdek, ichki korporativ hujjatlarga asoslanadigan, ehtimoliy va mavjud manfaatlar to‘qnashuvlarini aniqlash, oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha kompleks yondashuv mavjud.

Kompaniya tomonidan bunday vaziyatlarni aniqlash, oldini olish va tartibga solish tartibini belgilab beruvchi Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom ishlab chiqilgan va amalga kiritilgan. Barcha xodimlar o‘z xizmat vazifalarini bajarishda ularning xolisligiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan har qanday shaxsiy yoki kasbiy manfaatlarini oshkor qilishlari shart. Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish jarayoni tegishli bo‘linmalarni majburiy ravishda xabardor qilish, ichki baholash o‘tkazish va tuzatish choralarini ko‘rishni o‘z ichiga oladi.

Ijroiya apparati xodimlari va filial rahbariyatining manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq masalalar ixtisoslashtirilgan bo‘linmalar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Boshqa xodimlar uchun bu jarayon personalni boshqarish xizmatlari tomonidan muvofiqlashtiriladi.

“O‘zbektelekom” AK manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish doirasida profilaktika mexanizmlarini kuchaytirish va xodimlarning xabardorligini oshirish bo‘yicha ishlarni davom ettirishni rejalashtirmoqda, xususan, quyidagilarni amalga oshirish:

- yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvlarini avtomatlashtirilgan monitoring va tahlil qilish uchun qo‘shimcha vositalarni ishlab chiqish va joriy etish;
- korporativ etika me‘yorlariga rioya etilishi ustidan ichki nazoratni kuchaytirish, shu jumladan muntazam ravishda o‘tkaziladigan tekshiruvlar va auditlar orqali;
- ko‘proq xodimlarni qamrab olish va zamonaviy raqamli o‘qitish formatlarini integratsiya qilgan holda o‘quv dasturini kengaytirish;
- ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini vijdonan oshkor qiluvchi xodimlarni himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqqan holda ichki nazorat tizimiga yuqori darajadagi ishonch bildirilishini ta‘minlash.

Ushbu chora-tadbirlar shaffoflikning korporativ madaniyatini yanada mustahkamlash, xodimlarning mas‘uliyat darajasini oshirish, huquqiy va obro‘-e‘tibor bilan bog‘liq risklarni kamaytirishga qaratilgan.

Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish doirasida Kompaniyada bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Eng avvalo, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshirish maqsadida ichki me‘yoriy hujjatlar har tomonlama taftish qilinadi. Zarur hollarda nazoratni kuchaytirish va bunday holatlarning oldini olish uchun tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi masalalari bilan shug‘ullanuvchi mavjud komissiyalar faoliyatini tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ularning tarkibi va samaradorligini batafsil baholash, shuningdek, shaffoflik va samaradorlikni oshirish maqsadida ularning faoliyatiga tuzatishlar kiritish rejalashtirilgan.

Risklarni minimallashtirish uchun manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishning qo‘shimcha mexanizmlari joriy etilmoqda, jumladan, xodimlarning shaxsiy va kasbiy manfaatlarining kesishishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni majburiy ravishda deklaratsiyalash.

Xodimlarning mazkur yo‘nalishdagi mas‘uliyatidan xabardorligini oshirish maqsadida o‘quv tadbirlari o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Manfaatlar to‘qnashuvi va ularning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlari haqidagi bilimlarni oshirish maqsadida treninglar va onlayn testlar tashkil etiladi.

Qo‘shimcha ravishda, Kompaniyada har yili ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilmoqda. Xodimlar o‘zlarining kasbiy faoliyatining obyektivligiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan barcha holatlar ko‘rsatilgan deklaratsiyalarni taqdim etishlari shart bo‘ladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi yuzasidan kelib tushan shikoyatlar va murojaatlarni tahlil qilish orqali ham vaziyat nazorat qilinadi. Ushbu ishlar natijalariga ko‘ra, shaffoflikni oshirish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qoidabuzarliklarning oldini olish bo‘yicha zarur tuzatish choralarini ko‘riladi.

# Ichki va tashqi audit xizmati

## Ichki audit

Ichki audit xizmati (keyingi o‘rinlarda — Xizmat) korporativ boshqaruvning shaffofligi, ishonchligi va samaradorligini ta‘minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Ichki auditning asosiy maqsadi — Kompaniyaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini mustaqil baholash, risklarni aniqlash va kamaytirish, shuningdek, ichki nazorat tizimini takomillashtirish.

Ichki audit xizmati o‘z faoliyati doirasida Kuzatuv kengashini Kompaniyaning joriy holati to‘g‘risida xolis axborotlar bilan ta‘minlaydi, biznes-jarayonlar samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi va Kompaniya faoliyatini korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari va ilg‘or tajribalariga muvofiqligini ta‘minlashga ko‘maklashadi.

### Xizmatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

#### Baholash va nazorat:

- tasdiqlangan rejaga muvofiq ichki audit tekshiruvlarini o‘tkazish;
- moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarining Kompaniya manfaatlariga muvofiqligini nazorat qilish;
- moliyaviy holatni, affillangan shaxslar bilan tuzilgan yirik bitimlar va operatsiyalarni tahlil qilish;
- moliyaviy risklar darajasining muvofiqligini tekshirish.

#### Risklarni aniqlash va bartaraf etish:

- moliyaviy-xo‘jalik faoliyati sohasidagi risklarni aniqlash, tasniflash va tahlil qilish;
- ularni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish ustidan nazoratni amalga oshirish.

#### Korporativ boshqaruvni qo‘llab-quvvatlash:

- buxgalteriya hisobi, soliq va moliyaviy tartibga solish masalalari bo‘yicha maslahatlar;
- ichki nazorat va ichki audit tizimini rivojlantirish va takomillashtirish;
- Kuzatuv kengashi va tashqi auditorlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

#### Hisobotni tahlil qilish va tasdiqlash:

- buxgalteriya ma‘lumotlarining to‘g‘riligini tekshirish;
- xodimlar va uchinchi shaxslarning harakatlari natijasida Kompaniyaga yetkazilgan zararni baholash;
- Kompaniya tomonidan oshkor qilingan moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligini tasdiqlash.

Xizmat xodimlari audit tekshiruvlarini o‘tkazish, moliyaviy faoliyat, buxgalteriya hisobi yoki soliq nazorati sohasida kamida ikki yillik ish tajribasiga, shuningdek, ichki auditor sertifikatiga yoki tegishli ixtisoslik bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi lozim. Har yili Xizmat xodimlari Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan o‘tkaziladigan attestatsiyadan o‘tadilar.

Xizmat xodimlari soni Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi va kamida ikkita sertifikatlangan auditorlardan tashkil topgan bo‘lishi lozim. Tegishli malakaga ega bo‘lgan Xizmat rahbari har yili bo‘linma budgetini shakllantiradi va tasdiqlash uchun taqdim etadi.

Xizmat xodimlari har yili attestatsiyadan o‘tadilar, ularning kasbiy darajasi muntazam ravishda malaka oshirish orqali ta‘minlanadi. Manfaatlarni to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun ular o‘z faoliyatini Kompaniyada boshqaruv lavozimlarida ishlash, Kuzatuv kengashiga a‘zo bo‘lish bilan birgalikda olib borolmaydilar yoki raqobatdosh tashkilotlarni boshqarishda ishtirok eta olmaydilar.

Kompaniyada Kuzatuv kengashi huzuridagi Ichki audit xizmatidan tashqari Sifat menejmenti va standartlashtirish xizmati mavjud.

Xizmatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Kompaniyaning strategik maqsadlari va risklarni baholashni hisobga olgan holda yillik audit dasturlarini ishlab chiqish va boshqarish;

## Tashqi audit

Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchligi va qonunchilik talablariga muvofiqligini ta‘minlash maqsadida “O‘zbektelekom” AK muntazam ravishda tashqi auditni o‘tkazadi.

2023-yilgi audit “Audit Company “Ernst & Young” MChJ XK bilan hamkorlikda o‘tkazildi. Tashqi audit har yili amalga oshiriladi va hisobot davri uchun moliyaviy hisobotlar, operatsion jarayonlar va korporativ boshqaruvning asosiy aspektlarini qamrab oladi.

Mustaqil auditorlik tashkilotini tanlash O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tanlov asosida

- nomuvofiqliklarni aniqlash va biznes-jarayonlarning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash uchun mustaqil audit tekshiruvlarini o‘tkazish;
- asosiy SMT (Sifat menejmenti tizimi) jarayonlari belgilangan talablarga muvofiqligini baholash, risklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar;
- normativ talablar va ichki tartib-qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish, hujjatlar va ichki reglamentlarning dolzarbligini ta‘minlash;
- audit natijalari bo‘yicha hisobotlarni tayyorlash, shu jumladan aniqlangan nomuvofiqliklarni tahlil qilish, ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar va tuzatish choralarini monitoring qilish;
- tavsiyalar joriy etilishini ta‘minlash va jarayonlarni takomillashtirish maqsadida Kompaniyaning boshqaruv va tarkibiy bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish;
- xalqaro audit standartlariga muvofiq auditorlik tekshiruvlarining mustaqilligi, xolisligi va konfidensialligini ta‘minlash;
- xulosalarning ishonchligini oshirish va auditorlik faoliyatining samaradorligini oshirish uchun risklarni hamda obyektiv va aniq ma‘lumotlarni tahlil qilishga asoslangan yondashuvlarni qo‘llash.

Sifat menejmenti va standartlashtirish xizmatining auditi har yili tasdiqlangan dasturga muvofiq, jarayonlarning murakkabligi, ilgari aniqlangan nomuvofiqliklar va Kompaniyaning strategik maqsadlarini hisobga olgan holda o‘tkaziladi. Bu ehtimoliy risklarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, biznes-jarayonlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

amalga oshiriladi, bu baholashning xolisona otkazilishini kafolatlaydi. Audit natijalaridan Kompaniyani boshqarish tizimini yanada takomillashtirish va aksiyadorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishonchini oshirish uchun foydalaniladi.

2023-yil 13–17-noyabr kunlari “TÜV Thüringen International” xalqaro sertifikatlashtirish tashkilotining O‘zbekistondagi rasmiy hamkori “SERT MANAGEMENT” MChJ tomonidan sifat menejmenti tizimining ISO 9001:2015 talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida qayta sertifikatlash bo‘yicha tashqi audit o‘tkazildi.

# Ishbilarmonlik etikasi va korrupsiyaga qarshi kurash

**Kompaniya o‘z faoliyatining barcha jabhalarida shaffoflik, mas’uliyat va halollikni ta‘minlab, ishbiarmonlik etikasining yuqori standartlariga amal qiladi. Ishbilarmonlik etikasining asosiy tamoyillari aksiyadorlar, hamkorlar, xodimlar va butun jamiyatning huquq va manfaatlarini hurmat qilishga asoslangan korporativ madaniyatni shakllantirishga qaratilgan.**

## Korporativ etikaning asosiy aspektlari:



### SHAFFOFLIK VA OCHIQLIK

Kompaniya o‘z faoliyati va moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni muntazam ravishda oshkor qilib, halol va ochiq biznes yuritishga intiladi.



### KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SIYOSATI

Kompaniya o‘z siyosati doirasida korrupsiyaviy risklarni minimallashtirish, biznes-jarayonlarining shaffofligini oshirish va adolatli ish yuritish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib boradi.



### AXLOQIY KORPORATIV BOSHQARUV

Korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilish, shu jumladan aksiyadorlar va hamkorlar huquqlarini himoya qilish, halol ish yuritish va samarali nazorat tizimi.



### IJTIMOY MAS‘ULIYAT

Kompaniya jamiyat manfaatlarini hisobga oladi, ekologik va ijtimoiy yo‘naltirilgan tashabbuslarni amalga oshiradi, shuningdek, faoliyat yuritayotgan hududning barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.



### XODIMLAR BILAN TO‘G‘RI VA ADOLATLI MUNOSABATLAR

Ishchilarning huquqlarini hurmat qilish, kasbiy o‘rinish va xavfsiz mehnat muhitini yaratish uchun sharoit yaratish.

## Kompaniya eng ilg‘or jahon amaliyotiga amal qilib, o‘z siyosatini bozor va jamiyatning o‘zgaruvchan talablariga moslashtirib, ishbilarmonlik etikasi standartlarini doimiy ravishda takomillashtirishga intiladi.

“O‘zbektelekom” AK o‘z faoliyatining barcha yo‘nalishlarida korrupsiyaviy risklarning oldini olish, aniqlash va minimal-lashtirishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi faoliyatni bos-hqarish bo‘yicha kompleks yondashuvni amalga oshiradi. Bunday yondashuv O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligiga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalarga, jumladan, ISO 37001:2016 “Pora olish-berish bilan kurashish menej-menti tizimlari” standartiga rioya qilishga asoslanadi.

### “O‘zbektelekom” AKning korrupsiyaga qarshi faoliyati quyidagi hujjatlar bilan tartibga solinadi:

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003 yil 31-oktabr)
- ISO 37001:2016 “Pora olish-berish bilan kurashish me-nejmenti tizimlari” xalqaro standarti
- “O‘zbektelekom” AKning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati
- “O‘zbektelekom” AKning boshqa ichki tartibi-qoidalarini

### Korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy tamoyillari:

- Nol tolerantlik — korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga nisbatan Kompaniya murosasiz pozitsiyani egallaydi.
- Shaffoflik va hisobdorlik — Kompaniyaning barcha biznes-jarayonlari manfaatdor tomonlar uchun ochiqlik va axborotning ommabopligi tamoyillarini hisobga olgan holda qurilgan.
- Riskga asoslangan yondashuv — korrupsiyaviy risklarni muntazam ravishda baholash ehtimoliy

## Korrupsiyaga qarshi kurash nazoratining mexanizmlari:

### Korrupsiyani samarali aniqlash va oldini olish uchun Kompaniyada ichki va tashqi nazorat mexanizmlari tizimi mavjud:

- Qoidabuzarliklar haqida xabar berish kanali — korrupsiyaning ehtimoliy holatlari haqida xodimlar va tashqi hamkorlarning anonim murojaatlari uchun maxsus liniya tashkil etilgan.

tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

- Oldini olish chora-tadbirlar — korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarni joriy etish, xodimlarni o‘qitish va ishbilarmonlik etikasi standartlariga rioya etilishini nazorat qilish.
- Davlat organlari va jamiyat bilan o‘zaro hamkorlik — Kompaniya shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tashabbuslarda faol ishtirok etadi.

“O‘zbektelekom” AKning korrupsiyaga qarshi kurash faoliyati korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta‘minlovchi Komplaens boshqarmasi tomonidan muvo-fiqlashtirib boriladi.

### Boshqarmaning asosiy funksiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ISO 37001:2016 standarti va qonunchilik hujjatlariga muvofiq ichki reglamentlarni ishlab chiqish va aktualashtirish;
- biznes-operatsiyalar korrupsiyaga qarshi kurash standartlariga muvofiqligi yuzasidan ichki nazoratni va monitoringni olib borish;
- o‘quv dasturlarini tashkil etish va xodimlarning ishbilarmonlik etikasi tamoyillari bo‘yicha xabardorligini oshirish;
- ehtimoliy qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlarini ko‘rib chiqish va ichki tekshiruvlar o‘tkazish;
- korrupsiyaviy risklarni minimallashtirish va korporativ jarayonlarning shaffofligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

- Ichki audit — Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatiga rioya etilishi yuzasidan Kompaniya bo‘linmalari muntazam tekshirib boriladi.
- Tashqi audit — mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan korporativ protseduralarning ISO 37001:2016 standarti va milliy qonunchilik talablariga muvofiqligi tekshiriladi.
- Korrupsiyaga qarshi kurash va etika qo‘mitasi — hodisalarni ko‘rib chiqadi va axloqiy me‘yorlarga rioya qilish masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi.

Ishga qabul qilingan barcha yangi xodimlar korrupsiyaga qarshi kurash me‘yorlariga rioya qilinishi yuzasidan tekshiruvdan o‘tadilar. Kompaniyaning barcha tarkibiy bo‘linmalari korrupsiyaga qarshi kurash talablariga rioya qilishlari shart, rahbariyat esa ularning joriy etilishi va samaradorligi uchun javobgardir.

“O‘zbektelekom” AK qonunchilik hujjatlaridagi va xalqaro standartlardagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini muntazam ravishda tahlil qilib boradi va takomillashtiradi. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash korrupsiyaviy risklarni minimallashtirish va korporativ javobgarlik darajasini oshirish uchun ichki jarayonlarni o‘z vaqtida moslashtirish imkonini beradi.

## KORRUPSIYA BILAN BOG‘LIQ RISKLAR BAHOLANISHI AMALGA OSHIRILGAN TARKIBIY BO‘LINMALAR/BIZNES-JARAYONLARNING, UMUMIY SONI VA FOIZI

| Ko‘rsatkich  | 2021 |     | 2022 |     | 2023 |     |
|--|------|-----|------|-----|------|-----|
|  | soni | %   | soni | %   | soni | %   |
| Korrupsiya bilan bog‘liq risklarni baholash amalga oshirilgan tarkibiy bo‘linmalar/biznes-jarayonlar | 19   | 100 | 19   | 100 | 31   | 100 |

## Tarkibiy bo‘linmalar va biznes-jarayonlarda korrupsiya xavfini baholash

“O‘zbektelekom” AKda risklarni boshqarish tizimi doirasida tarkibiy bo‘linmalar va asosiy biznes-jarayonlarda korrupsiyaviy risklarni baholash ishlari muntazam ravishda amalga oshirib boriladi. Ushbu ishlar ehtimoliy tahdidlarni aniqlash, profilaktika choralarini joriy etish va Kompaniya faoliyatining shaffofligini oshirishga qaratilgan.

### 2022-yilda Kompaniyaning 19 ta tarkibiy bo‘linmasida 65 ta biznes-jarayon tahlil qilindi. Baholash natijalariga ko‘ra:

- 18 ta jarayonda risk darajasi yuqori deb topilgan,
- 20 ta jarayonda risk darajasi o‘rtacha bo‘lgan,
- 27 ta jarayonda risk darajasi past deb topilgan.

### Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar amalga oshirilgandan so‘ng:

- 9 ta jarayon yuqori xavfli toifada qoldi,
- 12 ta jarayon o‘rta darajaga o‘tkazildi,
- 44 ta jarayonda risk darajasi past deb tasniflandi.

### 2023-yilda Kompaniyaning 20 ta tarkibiy bo‘linmasida 106 ta biznes-jarayon tahlil qilindi. Baholash natijalariga ko‘ra:

- 34 ta jarayonda risk darajasi yuqori deb tasniflangan,
- 53 ta jarayonda risk darajasi o‘rtacha bo‘lgan,
- 19 ta jarayonda risk darajasi past deb tasniflangan.
- Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar amalga oshirilgandan so‘ng:
- 8 ta jarayon yuqori xavfli toifada qoldi,
- 25 ta jarayon o‘rta darajaga o‘tkazildi,
- 73 ta jarayonda risk darajasi past deb tasniflandi.

Korrupsiyaga qarshi siyosat va tartiblar bo‘yicha xabardor qilish va o‘qitish “O‘zbektelekom” AKda xodimlarning Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati tamoyillari haqida xabardorligini oshirish va ishbilarmonlik etikasi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2023-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish doirasida turli toifadagi xodimlar uchun axborot va o‘quv tadbirlari o‘tkazildi.

### Hisobot davrida ma‘muriy-boshqaruv xodimlari, ishlab chiqarish xodimlari va boshqaruv a‘zolarining 100 foizi Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati va Kompaniyaning ichki tartibi-qoidalarini bilan tanishtirildi, jumladan:

- 655 ta ma‘muriy-boshqaruv personal xodimlari,
- 16 570 ta ishlab chiqarish personal xodimlari,
- Ijroiya organining 7 nafar a‘zosi.

Bunda, xabardor qilish faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilgan. Biznes-hamkorlar orasida Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati bilan tanishish ishlari 2023-yilda amalga oshirilmagan bo‘lib, ushbu ishlar kelgusi davrlarda ustuvor vazifa etib belgilanadi.

### Korporativ ta‘lim tashabbuslari doirasida 2023-yilda 533 nafar xodim korrupsiyaga qarshi ixtisoslashtirilgan treningdan o‘tkazildi, jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasida 524 nafar xodim,
- 9 nafar xodim mamlakatdan tashqarida.

O‘quv dasturlari Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi siyosatining asosiy qoidalarini, qonunchilik me‘yorlari,

korrupsiyaviy risklarni aniqlash va oldini olish mexanizmlari, shuningdek, hamkorlar va davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarda axloqiy xulq-atvor qoidalarini qamrab oldi.

“O‘zbektelekom” AK korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha o‘qitish tizimini takomillashtirishni davom ettirmoqda va kelgusida yangi interaktiv trening va test formatlarini joriy etish orqali xabardor qilinishi lozim bo‘lgan xodimlar va biznes-hamkorlar doirasini yanada kengaytirishni rejalashtirmoqda.

2023-yilda korporativ monitoring va ichki nazorat tizimi doirasida “O‘zbektelekom” AK faoliyatida tasdiqlangan korrupsiya holatlari aniqlanmagan. Hisobot davrida korrupsion xatti-harakatlari uchun xodimlarni ishdan bo‘shatish yoki intizomiy javobgarlikka tortish holatlari kuzatilmagan. Shuningdek, korrupsiya bilan bog‘liq qoidabuzarliklar sababli biznes-hamkorlar bilan tuzilgan shartnomalarni bekor qilish yoki uzaytirmaslik holatlari kuzatilmagan. Yil davomida Kompaniya va uning xodimlariga nisbatan korrupsiyaga oid sud ishlari ko‘rib chiqilganligi qayd etilmagan. Ushbu holat so‘nggi ikki yil davomida ham saqlanib qolmoqda.

## 2023-yilda “O‘zbektelekom” AK faoliyatida amaldagi qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilmaslik holatlari qayd etilmadi. Hisobot davrida ham, oldingi yillarda ham Kompaniyaga nisbatan moliyaviy yoki ma‘muriy tusdagi jazo choralari yoki boshqa ta‘sir choralari qo‘llanilmagan.

### Korrupsiyaga qarshi faoliyatni reyting baholash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qaroriga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tomonidan har yili tashkilotlarni reyting baholash ishlari o‘tkaziladi. Monitoring “E-Anticor.uz” elektron platformasi yordamida amalga oshiriladi, bu esa korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini baholashning xolisligi va shaffofligini ta‘minlaydi.

“O‘zbektelekom” AK ushbu reytingda faol ishtirok etib, shaffoflik va korporativ etikaning yuqori standartlariga amal qilinishini tasdiqlaydi. O‘tgan hisobot davri natijalariga ko‘ra, Kompaniya 83 ball to‘pladi, bu esa amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari samaradorligidan dalolat beradi.

### Bu natija quyidagilarni aks ettiradi:

- Korrupsiyaga qarshi boshqaruvga tizimli yondashuv. Kompaniyada korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beradigan samarali mexanizmlar joriy etilgan.
- Yuqori darajadagi shaffoflik. Biznes-jarayonlarning ochiqchiligi va qat‘iy nazorat Kompaniyaning barcha bo‘linmalari hisobdorligini oshirishga yordam beradi.
- Qonunchilik hujjatlariga rioya qilish. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga va Korrupsiyaga qarshi siyosat sohasidagi xalqaro standartlarga to‘liq javob beradi.
- Jamiyat va hamkorlar ishonchining ortishi. Ushbu reyting “O‘zbektelekom” AK halollik va etika tamoyillariga amal qilib, ishonchli va mas‘uliyatli korxonalar sifatidagi obro‘sinini mustahkamlashini tasdiqlaydi.

2023-yilda Kompaniya “Cert International” xalqaro tashkiloti bilan ISO 37001:2016 standarti talablariga muvofiqchiligi yuzasidan Nazorat auditini o‘tkazish bo‘yicha shartnoma tuzdi. Tekshiruv natijalari bo‘yicha Kompaniyaning shaffoflik va korrupsiyaga

qarshi siyosat tamoyillariga amal qilishini aks ettiruvchi sertifikat tasdiqlandi. Bundan tashqari, Kompaniyaning Sifat menejmenti tizimi ISO 9001:2015 standarti bo‘yicha sertifikatlangan bo‘lib, bu biznes-jarayonlar yuqori darajada tashkil etilganligi va ularni doimiy ravishda takomillashtirishga e‘tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Kompaniya korrupsiyaga qarshi risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, ilg‘or tajribalarni joriy etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish hamda yuqori axloqiy standartlarga rioya qilishga asoslangan korporativ madaniyatni shakllantirishda davom etmoqda.

“O‘zbektelekom” AK shaffoflik va milliy qonunchilikka, shuningdek, korrupsiyaga qarshi komplaensning xalqaro standartlariga rioya etish siyosatini izchil amalga oshirib kelmoqda. Huquqiy nazorat va ichki komplaensning samarali tizimi korrupsiyaviy risklarning oldini olishga, huquqiy madaniyatning yuqori darajasini ta‘minlashga va biznesni adolatli yuritish tamoyillariga amal qilinishini tasdiqlashga yordam beradi.

### Ishonch aloqa kanallari

Kompaniyada shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaviy risklarini aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu vositalar qatoriga — hamkorlarga va mijozlarga korrupsiya va huquqbuzarlik holatlari haqida xabar berish imkonini beruvchi ishonch aloqa kanali.

#### Murojaatlarni yuborish uchun aloqa kanallari:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz>);
- Kompaniyaning rasmiy veb-sayti va elektron manzili: antikorrupsiya@uztelecom.uz;
- Kompaniyaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy akkauntlari va Telegram-bot;
- Maxsus ishonch telefoni: +998 55 501 77 87;
- Kompaniyaning tegishli organlariga shaxsiy yoki yozma murojaat.

Murojaatlar anonim yoki aloqa ma‘lumotlari ko‘rsatilgan holda yuborilishi mumkin. Barcha ma‘lumotlar konfidensial tarzda ko‘rib chiqiladi. Faktlar tasdiqlansa, tegishli choralar ko‘riladi, jumladan, materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshiriladi.

Kompaniyaning mas‘ul bo‘linmalari kiruvchi xabarlarini tahlil qiladi, ularni ro‘yxatga oladi va tekshirishni amalga oshiradi. Tekshiruv natijalariga ko‘ra, qonunchilik hujjatlari va ichki normativ hujjatlarga muvofiq intizomiy yoki boshqa choralari ko‘rilishi mumkin.

Kompaniya vijdonli arizachilarni taqdim etilgan xabarlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan tazyiq yoki ta‘qiblardan himoya qilishni kafolatlaydi.

# Iqtisodiy resurslarni boshqarish

**Kompaniya barqaror rivojlanish va iqtisodiy resurslarni mas’uliyatli boshqarish tamoyillariga amal qilishini namoyish etadi. 2023-yilda yaratilgan iqtisodiy qiymatning o‘shishi kuzatildi, bu operatsion faoliyatning kengayishi va xizmatlarga talablarning ortishi fonida daromadlarning oshishi bilan bog‘liqdir.**

Taqsimlangan iqtisodiy qiymat ham oshdi, bu xodimlarga, kapital yetkazuvchilarga va davlatga to‘lanadigan to‘lovlarning oshishini aks ettiradi. Xodimlarning ish haqi darajasi oshganligi Kompaniyaning ijtimoiy jihatlariga va mehnat sharoitlariga e‘tibor qaratayotganidan dalolat beradi. Davlatga amalga oshiriladigan to‘lovlar, umuman olganda, barqaror darajada saqlanib qoldi, bunda, daromad solig‘i pasaydi, bu soliqni tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari yoki yilning moliyaviy natijalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Mahalliy hamjamiyatlarga investitsiyalar davom ettirildi, bu esa Kompaniyaning mintaqani rivojlantirishdagi ishtirokini ta’kidlaydi.

Taqsimlanmagan iqtisodiy qiymatning o‘shishi moliyaviy barqarorlik saqlanib qolganligi va kelajakdagi rivojlanish uchun asos shakllantirilishidan dalolat beradi. Kompaniya aksiyadorlar, xodimlar, hamkorlar va butun jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda iqtisodiy qiymatni yaratishga muvozanatli yondashadi.

2023-YILDA TUZILGAN SHARTNOMALARNING

# 99,89%

O‘ZBEKISTON KOMPANIYA LARI  
BILAN TUZILGAN

2023-YILDA MAHALLIY YETKAZIB  
BERUVCHILARDAN XARIDLAR  
ULUSHI UMUMIY SUMMANING

# 96,33%

TASHKIL ETDI

## YARATILGAN VA TAQSIMLANGAN BEVOSITA IQTISODIY QIYMAT, MLRD SO‘M

| Ko‘rsatkich  | 2021  | 2022  | 2023         | Og‘ish, % |
|--|-------|-------|--------------|-----------|
| <b>1. Yaratilgan bevosita iqtisodiy qiymat</b>                             | 5 468 | 6 418 | <b>7 969</b> | 24%       |
| Daromad (tushum)   | 5 355 | 6 220 | <b>7 752</b> | 25%       |
| Moliyaviy investitsiyalardan olingan daromadlar                            | 22    | 2     | <b>0,996</b> | -50%      |
| Moddiy aktivlarni sotishdan olingan daromadlar                             | 47    | 140   | <b>101</b>   | -28%      |
| Boshqa tushumlar   | 43    | 56    | <b>115</b>   | 105%      |
| <b>2. Taqsimlangan iqtisodiy qiymat</b>                                    | 2 638 | 3 205 | <b>4 336</b> | 35%       |
| Operatsion xarajatlar  | 999   | 1 172 | <b>1 353</b> | 15%       |
| Xodimlarga ish haqi, boshqa to‘lovlar va imtiyozlar shu jumladan, ish haqi | 943   | 1 316 | <b>2 066</b> | 57%       |
| - shu jumladan, xodimlarga boshqa to‘lovlar va imtiyozlar                  | 943   | 1 316 | <b>2 066</b> | 57%       |
| Kapital yetkazib beruvchilarga to‘lovlar                                   | 401   | 345   | <b>519</b>   | 50%       |
| - shu jumladan, to‘langan dividendlar                                      | 47    | 3     | <b>0</b>     | -100%     |
| - shu jumladan, moliyaviy xarajatlar                                       | 354   | 342   | <b>519</b>   | 52%       |
| Davlatga to‘lovlar   | 271   | 309   | <b>357</b>   | 16%       |
| shu jumladan, daromad solig‘i  | 79    | 49    | <b>24</b>    | -51%      |
| Mahalliy hamjamiyatlarga investitsiyalar                                   | 25    | 63    | <b>41</b>    | -35%      |
| <b>3. Taqsimlanmagan iqtisodiy qiymat</b>                                  | 2 830 | 3 214 | <b>3 633</b> | 13%       |

Hisobot davrida “O‘zbektelekom” AK davlatdan moliyaviy yordam, jumladan, subsidiyalar, soliq imtiyozlari, investitsiya grantlari va boshqa qo‘llab-quvvatlash shakllarini olmagan. Kompaniya moliyaviy mustaqillik va barqarorlik tamoyillari asosida faoliyat yuritib, ichki resurslar va bozor mexanizmlari orqali rivojlanishni ta’minlaydi.

Milliy biznesni qo‘llab-quvvatlash siyosati doirasida Kompaniya mahalliy yetkazib beruvchilar bilan ustuvor hamkorlikni davom etmoqda. 2023-yilda tuzilgan shartnomalarning 99,89 foizi O‘zbekiston kompaniyalari bilan tuzilgan bo‘lib, mahalliy yetkazib beruvchilardan xaridlar ulushi umumiy summaning 96,33 foizini tashkil etdi. Bu “O‘zbektelekom” AKning mahalliy bozorni rivojlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi strategik yo‘nalishini tasdiqlaydi.


## MAHALLIY (O‘ZBEKISTONLIK) YETKAZIB BERUVCHILARDAN AMALGA OSHIRILGAN XARIDLAR ULUSHI

| Mahalliy (o‘zbekistonlik) yetkazib beruvchilardan amalga oshirilgan xaridlar ulushi | 2021    | 2022    | 2023             |
|---|---------|---------|------------------|
| Yetkazib beruvchilar soni, jami   | 1 647   | 1 883   | <b>1 878</b>     |
| Summasi, mln so‘m   | 888 885 | 787 871 | <b>1 568 652</b> |
| Mahalliy yetkazib beruvchilar soni  | 1 647   | 1 883   | <b>1 876</b>     |
| Mahalliy yetkazib beruvchilardan xaridlar summasi, mln so‘m                         | 888 885 | 787 871 | <b>1 511 075</b> |
| Miqdori bo‘yicha %  | 100,00% | 100,00% | <b>99,89%</b>    |
| Summasi bo‘yicha %  | 100,00% | 100,00% | <b>96,33%</b>    |

## 3.

# EKOLOGIK MA'SULIYAT

- 46 — Boshqaruvga yondashuv
- 47 — Atrof-muhitni muhofaza qilish (chiqindilar chiqarilishini boshqarish, suv iste'moli, chiqindilar)
- 52 — Energiya iste'moli va energiya tejamkorligi



# Boshqaruvga yondashuv

"O'zbektelekom" AK ilg'or energiya tejash va barqaror rivojlanish texnologiyalarini joriy etish orqali o'z faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirishga intiladi. Kompaniya energiya sarfini, resurslardan oqilona foydalanishni va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etishni qamrab oluvchi ekologik boshqaruvga kompleks yondashuvni amalga oshiradi.

"YASHIL MAKON" LOYIHA  
DOIRASIDA KOMPANIYA TOMONIDAN

**59 554**  
tup ko'chat ekildi

## EKOLOGIK MA'SULIYATNING ASOSIY YO'NALISHLARI:



energiya sarfini optimallashtirish va uskunalarning energiya samaradorligini oshirish



uglerod izlarini kamaytirish uchun quyosh elektr stansiyalarini joriy etish



korporativ avtoparkda elektromobillardan foydalanish



chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash dasturlarini ishlab chiqish



faoliyatning barcha bosqichlarida ekologik standartlarga rioya etilishini nazorat qilish

"O'zbektelekom" AK O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatimizdagi ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan "Yashil Makon" milliy loyihasida ishtirok etishda davom etmoqda. Mazkur loyiha doirasida Kompaniya tomonidan 59 554 tup ko'chat ekilib, hududdagi yashil maydonlarni tiklash va ekologik muvozanatni mustahkamlashga ko'maklashildi. Ushbu tashabbuslar Kompaniyaning ekologik ma'suliyat tamoyillariga rioya qilinishini tasdiqlaydi.

# Atrof-muhitni muhofaza qilish (chiqindilar chiqarilishini boshqarish, suv iste'moli, chiqindilar)


## Issiqxona gazlari chiqindilari

"O'zbektelekom" AK issiqxona gazlari chiqindilarini monitoring qilish va boshqarishni amalga oshiradi, uglerod izlarini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratadi. Ekologik menejment tizimi doirasida to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita chiqindilarni, shuningdek, Kompaniya daromadlariga nisbatan ularning intensivligi hisobi yuritiladi. Oxirgi uch yil davomida chiqindilar chiqarilishi dinamikasi tahlili amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bo'yicha keyingi ish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

## Uslubiyot

### Issiqxona gazlari chiqindilarini baholash (Scope 1)

Issiqxona gazlari chiqindilari (IG)ni aniqlash Kompaniyaning atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirishning asosiy elementidir. Baholash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro standartlar va IPCC uslubiyoti (2006)<sup>1</sup> asosida amalga oshiriladi.

**Scope 1 chiqindilar toifasi:**

Hisoblash uslubiyotida yoqilg'ining issiqlik ajratish qobiliyatining koeffitsiyentlari va standartlashtirilgan chiqindilarning koeffitsiyentlaridan foydalaniladi. Yoqilg'i sarfi va xladagentlar sizib chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar qisman mavjud emas, bu esa hisob-kitoblarning to'liqligini cheklaydi.

$$E_{GHG,y}^{comb} = \sum_{j=1}^n (FC_{j,y} \times EF_{GHG,j,y} \times GWP_{GHG})$$
, bunda

$E_{GHG,y}^{comb}$  — issiqxona gazlari chiqindilari IG (CO<sub>2</sub>, CH<sub>4</sub>, N<sub>2</sub>O) yoqilg'ining stasionar yoqilishidan t CO<sub>2</sub>-ekv.

$FC_{j,y}$  — energiya ekvivalentida yoqilg'i sarfi, TJ.

$j$  — yoqish uchun ishlatiladigan yoqilg'i turi.

$n$  — ishlatiladigan yoqilg'i miqdori.

$EF_{GHG,j,y}$  — bir davr uchun yoqilg'ining stasionar yoki mobil yoqilishi natijasida IG chiqindilari koeffitsiyenti (tCO<sub>2</sub>/TJ). Milliy va xalqaro usullarning ko'rsatkichlariga muvofiq belgilanadi.

$GWP_{GHG}$  — IPCC AR6 ga muvofiq GWP koeffitsiyentiga.


**Bilvosita chiqindilarni baholash tamoyillari (Scope 2):**

Scope 2 energiya iste'moli (elektr energiyasi, issiqlik, bug ' , sovutish) bilan bog'liq bilvosita issiqxona gazlari (IG) chiqindilarini qamrab oladi. Ushbu emissiyalar IG<sup>2</sup> protokolining xalqaro standartiga muvofiq majburiy hisobga olinishi kerak.


**Hisoblash uslubiyoti:**

Chiqindilar energiya iste'molini hisobga olgan holda chiqindilar intensivligining o'rtacha mintaqaviy koeffitsiyentlari asosida baholanadi. 2023-yil uchun ma'lumotlar mavjud emasligi sababli, 2020-yilning koeffitsiyentlaridan foydalanilgan. Hisob-kitoblar uchun Xalqaro energetika agentligining 2022-yil uchun ma'lumotlaridan foydalanilgan.

**2023-yilda bilvosita chiqindilarning umumiy hajmi (elektr energiyasi iste'moli bilan bog'liq) 80 962 t CO<sub>2</sub>-ekv. ni tashkil etdi, bu esa 2022-yilga nisbatan 5% ga yuqori, lekin 2021-yil ko'rsatkichlaridan past. Chiqindilarning ko'payishi tarmoqni kengaytirish va infratuzilmani yangilash uchun zarur bo'lgan elektr energiyaning iste'mol qilinishi ortganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.**

**KOMPANIYA BO'YICHA BILVOSITA ISSIQXONA GAZLARINING (SCOPE 2) UMUMIY CHIQINDILARI HAJMI, T CO<sub>2</sub>-EKV****BEVOSITA ISSIQXONA GAZLARI CHIQINDILARI (SCOPE 1)**

Kompaniya bo'yicha umumiy hajmi, ming t CO<sub>2</sub>-ekv




| Ko'rsatkich                          | O'lchov birligi             | 2021*    | 2022*    | 2023      |
|--------------------------------------|-----------------------------|----------|----------|-----------|
| Karbonat anhidrid (CO <sub>2</sub> ) | ming t CO <sub>2</sub>      | 3 894,08 | 3 725,65 | 92 612,35 |
| Metan (CH <sub>4</sub> )             | ming t CO <sub>2</sub> -ekv | 1,92     | 1,83     | 244,49    |
| Azot oksidi (N <sub>2</sub> O)       | ming t CO <sub>2</sub> -ekv | 1,88     | 1,79     | 118,76    |

\* mobil yoqishdan kelib chiqadigan chiqindilar haqida ma'lumotlar hisobga olinmagan

**ISSIQXONA GAZLARI CHIQINDILARI (UGLEROD SIG'IMI)NING DAROMADGA NISBATI**

Umumiy energiya iste'moli, ming t CO<sub>2</sub>-ekv



| Ko'rsatkich      | O'lchov birligi                         | 2021*  | 2022*  | 2023   |
|------------------|---|--------|--------|--------|
| Daromad          | ming t CO <sub>2</sub> -ekv / mlrd so'm | 17 435 | 12 715 | 22 149 |
| Energiya sig'imi | mlrd so'm                               | 5 403  | 6 360  | 7 853  |

\* mobil yoqishdan kelib chiqadigan chiqindilar haqida ma'lumotlar hisobga olinmagan

## Suv iste'moli

"O'zbektelekom" AK suv resurslaridan oqilona foydalanib, ma'muriy va ishlab chiqarish jarayonlarida suv sarfini minimallashtiradi. Kompaniyaning asosiy suv iste'moli xodimlarning sanitariya-maishiy ehtiyojlari, shuningdek, bino va inshootlarning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq.

### Suvdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmogda:


- Suv iste'molini monitoring qilish va hisobga olish — Kompaniya obyektlarida suv iste'molini muntazam ravishda kuzatib borish.
- Suvdan foydalanishni optimallashtirish — suvni tejovchi texnologiyalar, jumladan, energiya tejaydigan sanitariya-texnik vositalardan foydalanishni joriy etish.
- Suv oqib chiqishining oldini olish — suv ta'minoti tarmoqlarini o'z vaqtida ta'mirlash ishlarini olib borib, eskirgan tizimlarni almashtirish.
- Xodimlarning xabardorligini oshirish — suvni tejash bo'yicha tashabbuslarni amalga oshirish.

Kompaniya suvdan foydalanish sohasidagi me'yoriy talablar va standartlarga, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi (2022-yildagi 784-O'RQ-son) Qonuni, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (2019-yildagi 426-O'RQ-son) Qonuniga, shuningdek, suv resurslaridan oqilona foydalanishni tartibga soluvchi sanitariya-gigiyena normalari va qoidalariga amal qiladi. Kompaniya suv sarflanishini muntazam ravishda kuzatib boradi va resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etadi, bu esa nafaqat atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish, balki ish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

**2023-yilda jami suv iste'moli 2022-yilga nisbatan 26,9 foizga kamaydi (926,68 ming m<sup>3</sup> dan 657,31 ming m<sup>3</sup> gacha). Suv iste'moli pasayishi, ayniqsa, suv tanqisligi bo'lgan hududlarda sezilarli bo'lib, bu ko'rsatkich 2022-yildagi 87,99 ming m<sup>3</sup> dan 2023-yilda 79,61 ming m<sup>3</sup> gacha (-9,5%) kamaydi.**

### QAYTARIB BO'LMAYDIGAN ISTE'MOL, MING M<sup>3</sup>

- Suv iste'molining umumiy miqdori
- Suv tanqisligi bo'lgan hududlarda umumiy suv iste'moli



## Chiqindilar bilan ishlash

"O'zbektelekom" AKning telekommunikatsiya uskunalari ekspluatatsiya qilish jarayonida ishdan chiqqan va yaroqsiz qurilmalar ko'rinishidagi chiqindilar hosil bo'ladi. Bunday materiallar tarkibida metallar, plastmassa va shisha — inert komponentlar bo'lganligi sababli, ular O'zbekiston Respublikasi sanitariya me'yorlariga (SanPiN No 0127-02) muvofiq 4-toifadagi xavfli chiqindilar (past darajali xavfli moddalar) deb tasniflanadi.

### Uskunalarni hisobdan chiqarish va utilizatsiya qilish tartibi normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi, jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004-yil 16-avgustdagi 101-son buyrug'i — asosiy vositalarni, shu jumladan texnologik jihozlarni hisobdan chiqarish tartibini belgilaydi.
- Pochta va telekommunikatsiyalar agentligining (Raqamli texnologiyalar vazirligi) 2002-yil 6-fevraldagi 40-son buyrug'i — telekommunikatsiya tarmog'idagi uskunalarni demontaj qilish va qayta ishlash tartibini belgilaydi.

### Amaldagi normativlarga muvofiq:

- Hisobdan chiqarilgan barcha uskunalar majburiy demontaj qilinadi.
- Keyinchalik foydalanish uchun yaroqli bo'lgan ba'zi komponentlar Ishchi komissiya tomonidan belgilanadi va ular qayta ishlatilishi mumkin.


### Qayta tiklash mumkin bo'lmagan uskunalar utilizatsiya qilish uchun vakolatli tashkilotlarga topshiriladi:

- "O'zvtortsvetmet" AJ — rangli metallarni tayyorlash va qayta ishlash.
- "O'zmetkombinat" AJ ("O'zvtortsvetmet" AJ tarkibiy bo'linmasi) — qora metallolomni tayyorlash va qayta ishlash.

Bundan tashqari, yangi uskunalarni joylashtirish va o'rnatish ishlari zarur o'lchovlarni amalga oshiradigan va sanitariya pasportlarini rasmiylashtiradigan sanitariya xizmatlari bilan muvofiqlashtiriladi. "O'zbektelekom" AK barcha belgilangan talablarga amal qilib, atrof-muhitga ta'sirni minimallashtiradi va chiqindilar bilan tegishli ishlar mas'uliyat bilan boshqarilishini ta'minlaydi.

**2023-yilda xavfli chiqindilar hajmi 6 421 m<sup>3</sup> ni tashkil etdi, bu 2021-yilga nisbatan 4 foizga yuqori. Dinamika chiqindilarni utilizatsiya qilishni yanada nazorat qilish va Ekologik siyosatni kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.**

### UTILIZATSIYA QILINGAN CHIQUINDILARNING UMUMIY HAJMI, M<sup>3</sup>



## 2024-yilga va o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan rejalar

- Elektron chiqindilarni qayta ishlash va alohida yig'ish bo'yicha dasturlarni rivojlantirish.
- Qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini oshirish, elektromobillarni va energiyani tejovchi intellektual tizimlarni joriy etish.
- Suvdan foydalanishni optimallashtirish va transport chiqindilarini kamaytirish.

Kompaniya atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish uchun barqaror amaliyotlarni integratsiya qilishda davom etadi.

# Energiya iste'moli va energiya tejamkorligi

"O'zbektelekom" AK atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatadigan telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etadi, bunda, elektr energiyasi iste'moli asosiy omil hisoblanadi. Uni optimallashtirish uchun Kompaniya aksariyat ATSlarda zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilmoqda, ayrim obyektlarda esa o'z hududlarida o'rnatilgan quyosh elektr stansiyalaridan foydalanmoqda. Bu nafaqat uglerod izini kamaytirishga yordam beradi, balki infratuzilmaning ishonchligi va barqarorligini ham oshiradi.

"O'zbektelekom" AK tomonidan energiya samaradorligini oshirish va resurslar sarfini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda, bu so'nggi uch yil davomida energiya iste'moli dinamikasida o'z ifodasini topmoqda.

Kompaniyaning 2023-yilda jami energiya iste'moli 2022-yilga nisbatan 4 foizga oshdi, bu tarmoqning kengayishi, infratuzilmaga yuklamaning ortishi va

ko'rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlarining hajmi o'sishi bilan boq'liq. Shunga qaramay, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga (quyosh elektr stansiyalariga) o'tish orqali bir qator ijobiy o'zgarishlarga erishildi:

- Qayta tiklanmaydigan manbalardan yoqilg'i iste'moli 9 foizga kamaydi. Xususan, benzin (-17 foiz) va tabiiy gazdan (-22 foiz) foydalanish kamaytirildi, bu esa uskunalarning energiya samaradorligini oshirish va avtotransport parkining bir qismini elektromobillarga almashtirish bilan bog'liq.
- Qayta tiklanadigan manbalardan olinadigan energiya ulushi 27 foizga oshdi, bunga aloqa obyektlarida quyosh elektr stansiyalarini o'rnatish hisobiga erishildi.
- Elektr energiyasini xarid qilish 5 foizga o'sdi, bu qisman an'anaviy yoqilg'i iste'molini qisqartirish hisobiga qoplandi.

## ENERGIYA XARAJATLARI

| Yoqilg'i turi  | 2021      | 2022      | 2023      |
|--|-----------|-----------|-----------|
| <b>Yoqilg'i turlari bo'yicha qayta tiklanmaydigan manbalardan yoqilg'i iste'moli (XARID OLISH)</b> |           |           |           |
| Benzin, l  | 1 696 597 | 1 619 301 | 1 446 319 |
| Tabiiy gaz, ming m <sup>3</sup>  | 1 839     | 1 932     | 1 421     |
| Dizel yoqilg'isi, l  | 1 067 392 | 1 179 295 | 1 544 413 |
| <b>Energiya turlari bo'yicha qayta tiklanadigan manbalardan energiya iste'moli</b>                 |           |           |           |
| Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan energiya iste'moli, ming kVt                              | 2 410     | 3 409     | 4 573     |
| <b>Turlari bo'yicha iste'mol qilish uchun sotib olingan energiya miqdori</b>                       |           |           |           |
| Elektr energiyasi  | 160 640   | 170 466   | 182 932   |


## Qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish

# 1 298,9 kVt

KOMPANIYANING 2023-YILIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI QUUVVATI

2023-yilda Kompaniya quyosh elektr stansiyalarini o'rnatish dasturini amalga oshirishni davom ettirdi, bu esa qayta tiklanadigan energiya manbalari obyektlarining quvvatlarini 1 298,9 kVt gacha oshirish imkonini berdi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish markazlashtirilgan elektr ta'minoti tarmoqlariga yukni kamaytiradi, energiya samaradorligini oshiradi va uglerod izlarini kamaytiradi.

**"O'ZBEKTELEKOM" AK TOMONIDAN 2023-YILDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI OBYEKTLARINI (QUYOSH BATAREYALARI, KVT) O'RNATISH VA ISHGA TUSHIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT**



○ Bajarilangli

○ Reja

## Elektromobil transportini rivojlantirish

Energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlaridan biri bo'lib, ekologik toza transportga o'tish bo'ldi. 2023-yilda Kompaniyaning avtoparki 17 ta elektromobildan iborat bo'lib, ulardan 3 ta sedan va 14 ta krossoverdan xizmat safari va aloqa obyektlariga texnik xizmat ko'rsatish uchun foydalaniladi. Bu yoqilg'i uchun xarajatlarni va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga yordam beradi. 2025-yilga borib, elektromobillar avtoparkini yana 58 ta birlikka ko'paytirish rejalashtirilgan.

## Energiya resurslari uchun moliyaviy xarajatlar

2023-yilda elektr energiyasi uchun xarajatlar miqdori 34 foizga o'sishi kuzatildi, bu tariflar va iste'mol hajmining oshishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, issiqlik energiyasi uchun xarajatlar 21% ga kamaydi, bunga isitish tizimlarini optimallashtirish va binolarning energiya samaradorligini oshirish orqali erishilgan.

### ENERGIYA UCHUN XARAJATLAR

| Yoqilg'i turi           | 2021          | 2022          | 2023           |
|-------------------------|---------------|---------------|----------------|
| Elektr energiyasi       | 6 288         | 64 775        | <b>87 028</b>  |
| Issiqlik energiyasi     | 868           | 729           | <b>576</b>     |
| Dizel yoqilg'isi        | 5 776         | 9 650         | <b>15 322</b>  |
| Benzin                  | 7 667         | 9 890         | <b>12 230</b>  |
| Tabiiy gaz              | 814           | 778           | <b>938</b>     |
| Avtotransport uchun gaz | 5 863         | 3 719         | <b>4 795</b>   |
| <b>Jami:</b>            | <b>78 006</b> | <b>85 822</b> | <b>116 094</b> |

### ENERGIYA SIG'IMINING DAROMADGA NISBATI

| Ko'rsatkich               | O'lchov birligi | 2021       | 2022       | 2023              |
|---------------------------|-----------------|------------|------------|-------------------|
| Umumiy energiya iste'moli | GDj             | 734 426,55 | 777 745,92 | <b>810 055,20</b> |
| Energiya sig'imi          | GDj/mlrd so`m   | 136        | 122        | <b>103</b>        |
| Daromad                   | mlrd so`m       | 5 403      | 6 360      | <b>7 853</b>      |

### ENERGIYA ISTE'MOLINI KAMAYTIRISHI

|                                      | O'lchov birligi   | 2021             | 2022             | 2023             |
|--------------------------------------|-------------------|------------------|------------------|------------------|
| <b>Suyuq yoqilg'i, shu jumladan:</b> | <b>litr</b>       | <b>2 763 989</b> | <b>2 798 596</b> | <b>2 990 731</b> |
| Benzin                               | litr              | 1 696 597        | 1 619 301        | <b>1 446 318</b> |
| Dizel yoqilg'isi                     | litr              | 1 067 392        | 1 179 295        | <b>1 544 412</b> |
| <b>Gaz, shu jumladan:</b>            | <b>ming m³</b>    | <b>1,839</b>     | <b>1,933</b>     | <b>1,422</b>     |
| Tabiiy gaz                           | ming m³           | 1,839            | 1,932            | <b>1,421</b>     |
| Suyultirilgan uglevodород gazi (SUG) | ming m³           | 0,694            | 0,796            | <b>0,652</b>     |
| <b>Elektr energiyasi</b>             | <b>ming kVt/s</b> | <b>160,640</b>   | <b>170,466</b>   | <b>182,932</b>   |

## 2024-yilga va o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan rejalar

2024-yilda Kompaniya energiya resurslari, jumladan, elektr, issiqlik energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, iste'molni optimallashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirishni rejalashtirmoqda. Faoliyatning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

### Elektr energiyasi

- Elektr energiyasini hisobga olish tizimlarini kompleks inventarizatsiyadan o'tkazish, shu jumladan plombalarning yaxlitligi va normativ talablarga muvofiqligini tekshirish.
- Yaroqlilik muddati o'tgan elektr hisoblagichlarni o'z vaqtida sertifikatlash, muvofiqlik sertifikatlarini olish.
- Telekommunikatsiya obyektlarida energiya samaradorligini oshirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.
- Quyosh fotoelektr stansiyalarini jadal joriy etish va 2024-yil oxiriga qadar ularning rejalashtirilgan muddatlarda o'rnatilishini yakunlash.
- Energiyani tejavchi texnologiyalarga bosqichma-bosqich o'tish:
  - eskirgan yoritish moslamalarini LED bilan almashtirish,
  - avtomatik yoritish uchun harakat datchiklarini o'rnatish;
  - axborot kompaniyalari orqali xodimlar o'rtasida energiya tejash tamoyillarini ommalashtirish.
- Sovutish tizimlarini optimallashtirish, ish joylarida kondisionerlardan reglament bo'yicha foydalanish.
- Energiya yo'qotilishining oldini olish uchun nosoz va eskirgan elektr uskunalarni foydalanishdan chiqarish.

### Issiqlik energiyasi

- Issiqlik energiyasini hisobga olish tizimlarini monitoring qilish va ularga xizmat ko'rsatish, shu jumladan ularni muntazam sertifikatlash.
- Radiatorlarga termostatik boshqaruv elementlarini o'rnatish va issiqlikni aks ettiruvchi ekranlardan foydalanish orqali issiqlik sarfini kamaytirish.
- Deraza, eshik va isitish tizimlarining issiqlik izolyatsiyasini yaxshilash hisobiga issiqlik yo'qotilishini kamaytirish.
- Binolarni kuz-qish mavsumiga kompleks tayyorlash, jumladan, quvurlarni ta'mirlash va deraza romlarini almashtirish.
- Issiqlik suv yo'qotishlarini kamaytirish uchun santexnika uskunalarini nazorat qilish va ta'mirlash.


### Tabiiy gaz

- Gaz hisoblagichlarining holatini tekshirish va ularni o'z vaqtida sertifikatlash.
- Qozonxonalarga texnik xizmat ko'rsatish: gaz garelkalarini sozlash, dudburonlarni tozalash, eskirgan uskunalarini almashtirish.
- Issiqlik suv ta'minoti quvurlarining izolyatsiyasini tekshirish va tiklash orqali issiqlik yo'qotishlarini kamaytirish.

## 4.

# ISH JOYIDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA XAVFSIZLIK

- 58 — Boshqaruvga yondashuv
- 60 — Ish joyida xavfsizlik
- 61 — Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitish



# Boshqaruvga yondashuv

**Telekommunikatsiya sohasi murakkab uskunalarni ekspluatatsiya qilish, balandlikda va elektr montaj ishlarini amalga oshirish, elektromagnit maydonlarning ta’siri, shuningdek, kecha-yu kunduz uzluksiz aloqani ta’minlash zarurati bilan bog‘liq bir qator o‘ziga xos risklar bilan tavsiflanadi.**

Ushbu omillar mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi masalalariga, jumladan, xodimlar uchun ehtimoliy xatarlarni kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi.

Xavfli telekommunikatsiya infratuzilmasi obyektlarida xavfsizlik talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini o‘rnatish — xavfsizlikni boshqarish tizimining eng muhim elementi hisoblanadi. U doimiy monitoring, xavfsizlik talablariga nomuvofiqlik holatlarini aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, profilaktika choralarini tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Mazkur tizim doirasida qonunchilik, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va idoraviy normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi ta’minlanadi, bu esa avariya vaziyatlarni minimallashtirish va kasbiy risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. “O‘zbektelekom” AK, mas’uliyatli ish beruvchi sifatida, turli darajadagi rahbarlar va vakolatli organlarning harakatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, mehnat xavfsizligini oshirishga qaratilgan zamonaviy texnik yechimlarni joriy etish orqali Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik tizimining samarali ishlashiga erishishga intiladi.

Kompaniyaning mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining me’yoriy-huquqiy bazasi ichki me’yoriy hujjatlar va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, shuningdek, umume’tirof etilgan xalqaro standartlar bilan shakllantiriladi, ularning maqsadi mehnat sharoitlarini yaxshilash, baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining oldini olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tashkiliy, texnik va sanitariya-gigiyena va sog‘lomlashtirish tadbirlarini tartibga solishdan iborat.

**Asosiy ichki me’yoriy hujjatlar quyidagilardir:**

- O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Vazirligi tomonidan 1996-yil 29-iyunda tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 14-avgustda 273-son bilan ro‘yxatga olingan “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom”.
- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 14-avgustda ro‘yxatga olingan (272-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan) “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish va bilimlarni sinovdan o‘tkazishni tashkil etish to‘g‘risidagi nizom”.
- Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va xodimlarning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan, sog‘lig‘iga yetkazilgan boshqa shikastlanishlarni tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizom”.
- Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi 263-son qarori bilan tasdiqlangan “Ish joylarini mehnat sharoitlari va jihozlarning xavfliligi bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”.
- Kompaniyaning 2023-yil 14-noyabrdagi 324-son buyrug‘i bilan amalga kiritilgan “O‘zbektelekom” AKda mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish to‘g‘risidagi nizom”.
- Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik va yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo‘yicha har yili ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar rejalari.

**Kompaniyada mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi doirasidagi asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:**

- ishlab chiqarish natijalaridan ishchilar hayoti va sog‘lig‘ining ustuvorligi tamoyilini hisobga olish;
- mehnatni muhofaza qilish sohasida fan va texnika yutuqlari va xalqaro tajribadan foydalanish;
- ijtimoiy himoya va hamkorlik;
- baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobini yuritish.

Kompaniya tomonidan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasini ta’minlash doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bir nechta asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bular jumlasidan: xodimlarning xavfsizlik talablariga javob berishini ta’minlash uchun xodimlarni tanlash va baholash; mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasiga rioya qilish va xabardorlikni oshirishga

qaratilgan treninglar va ko‘rsatmalar; xavfsiz ish joylarini tashkil etish, shu jumladan uskunalarni va infratuzilmaning holatini monitoring qilish; ishlab chiqarish jarayonlari va mehnat sharoitlari xavfsizligini ta’minlash, kasbiy xavflarni minimallashtirish; shuningdek, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va baxtsiz hodisalarning oldini olish, ish joylarini mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazish, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri tomonidan 29.08.2012-yilda imzolangan va 2387-son bilan ro‘yxatga olingan “Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘iga muvofiq xodimlarni majburiy dastlabki (ishga qabul qilinganda) va davriy (ish vaqtida) tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish. **Tizimda ish joylarining mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasiga muvofiqligini monitoring qilishning uch bosqichli tartibi mavjud:**

## 1 BIRINCHI BOSQICH

natijalarni tekshirish jurnalida majburiy qayd etish bilan smena boshlig‘i tomonidan kunlik ish joylarini tekshirish.

## 2 IKKINCHI BOSQICH

tarkibiy bo‘linmalar boshlig‘i yoki bog‘lama boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladigan davriy monitoring, keyinchalik ma’lumotlarni Tekshirish jurnalida ro‘yxatdan o‘tkazish bilan.

## 3 UCHINCHI BOSQICH

filiallar komissiyasi tomonidan har uch oyda bir marta amalga oshiriladigan va tekshirish dalolatnomasini rasmiylashtirish bilan yakunlanadigan ish joylarini kompleks tekshirish.

# Ish joyida xavfsizlik

Xodimlarning sog‘lig‘iga xavf tug‘diradigan omillarni aniqlash ish joyida xavfsizlikni ta‘minlash mexanizmlaridan biri bo‘lib, ish joylarini sertifikatlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayon mehnatni muhofaza qilish sohasida mustaqil akkreditatsiya qilingan kompaniya tomonidan Kasaba uyushmasi qo‘mitasi va kadrlar bo‘limi vakillari ishtirokida amalga oshiriladi. Attestatsiya natijalari bo‘yicha ekspert xulosasi tuziladi va ushbu xulosa O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligiga yuboriladi. Olingan ma‘lumotlar Kompaniyaning barcha filiallaridagi barcha lavozimlar uchun lavozim yo‘riqnomalarini ishlab chiqishda foydalaniladi. Ularda professional risklar darajasi, ehtiyot

choralarini ko‘rish va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish algoritmlari aniq belgilanadi. **2023-yildagi attestatsiyaga muvofiq quyidagi risklar aniqlangan:**

- dizel-generator qurilmalari bilan bog‘liq ishlar,
- kabelchilarning qo‘rg‘oshin kabellari bilan bog‘liq ishlari.

Ushbu risklarning ta‘sirini kamaytirish uchun Kompaniya tomonidan dizel-generatorlarini o‘rnatish va aloqa kabeli liniyalarida ishlovchi xodimlarni og‘ir sharoitlarda ishlash qobiliyatini saqlab qolish uchun maxsus oziq-ovqat bilan ta‘minlash kabi bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

## ISH JOYIDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA XAVFSIZLIK MASALALARINI BOSHQARISH TIZIMI BILAN QAMRAB OLINGAN XODIMLAR, KISHI

| Ko‘rsatkichlar  | 2021   | 2022   | 2023          |
|---|--------|--------|---------------|
| Kompaniyaning mehnatni muhofaza qilish va ishlab chiqarish xavfsizligini boshqarish tizimi bilan qamrab olingan odamlar soni.   | 14 500 | 14 098 | <b>14 467</b> |
| Kompaniyaning mehnatni muhofaza qilish va ishlab chiqarish xavfsizligini boshqarish tizimi bilan qamrab olingan, ichki audit jarayonidan o‘tgan shaxslar soni.  | 68     | 68     | <b>68</b>     |
| Uchinchi tomon tarafidan o‘tkazilgan mustaqil audit/sertifikatlash jarayonidan o‘tgan Kompaniyaning mehnatni muhofaza qilish va ishlab chiqarish xavfsizligini boshqarish tizimi bilan qamrab olingan odamlar soni. | 68     | 68     | <b>68</b>     |

2023-yil holatiga ko‘ra, Kompaniya xodimlarining 82.9% mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi tizimi bilan qamrab olingan. Ulardan 68 nafari ichki auditdan o‘tgan tizim doirasida, 68 nafari — uchinchi tomon tarafidan o‘tkazilgan mustaqil audit/sertifikatlash jarayoni orqali talablarga muvofiqligi tasdiqlangan tizim doirasida ishlaydi.

Biroq, 2023-yilda ish bilan bog‘liq jarohatlar natijasida uchta o‘lim qayd etilgan, ularning asosiy sababi tayanch ustunlaridan qulash bo‘ldi. Bundan

tashqari, Kompaniya shtatida bo‘lmagan, ammo uning nazorati ostida ishlayotgan ishchilar orasida bitta halokatli baxtsiz hodisa yuz berdi.

Kompaniyada barcha xodimlarni qamrab oluvchi majburiy davriy tibbiy ko‘riklar tizimi mavjud. Xodimlarning sog‘lig‘i holatini o‘z vaqtida nazorat qilish uchun maxsus jihozlangan tibbiy kabinet mavjud. Kasbiy risklari baland bo‘lgan ishlar bilan band bo‘lgan xodimlar har kuni tibbiy xodim tomonidan dastlabki tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar. Tekshiruv natijalariga ko‘ra, ularga o‘z vazifalarini bajarishga ruxsat beriladi.

# Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha o‘qitish

Kompaniya xodimlarni mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha o‘qitish masalalariga alohida e‘tibor qaratib, yuqori darajadagi xabardorlik va belgilangan standartlarga rioya etish — baxtsiz hodisalarning oldini olishning asosiy omili ekanligini angelaydi. Yo‘l-yo‘riqlar (instruktaj) va o‘qitish tizimi xodimlarning kasbiy faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab oladi, ularga o‘z mehnat vazifalarini xavfsiz va samarali bajarish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni beradi. O‘qitish ishlab chiqarish korxonalarining o‘quv markazlarida, Kompaniyaning o‘z resurs‘lari yordamida “O‘zbektelekom” AK “Telekommunikatsiya va personalni rivojlantirish markazi” filialida olib boriladi, bu esa ilg‘or xalqaro tajribani ichki standartlar va amaliyotlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. **O‘qitish tizimi doirasida quyidagi instruktaj turlari o‘tkaziladi:**

- **Boshlang‘ich instruktaj** — xodimlarni ishga yangi qabul qilishda o‘tkaziladi va ularni mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikning asosiy talablari bilan tanishtirish maqsadida o‘tkaziladi.
- **Dastlabki instruktaj** — mehnat vazifalarini bajarishni boshlashdan oldin ish joyida o‘tkaziladi.

- **Davriy instruktaj** — xodimlarning bilimlarini saqlab qolish va yangilash uchun muntazam ravishda o‘tkaziladi.
- **Rejadan tashqari instruktaj** — texnologik jarayonlar o‘zgarganda, avariya vaziyatlar yuzaga kelganda yoki xavfsizlik qoidalarini buzilishi aniqlanganda tayinlanadi.

Ishga qabul qilinganda, xodimga mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari bo‘yicha ikki haftalik o‘quv kursi taqdim etiladi va uning yakunida imtihon o‘tkaziladi. Testlash jarayonidan muvaffaqiyatli o‘tgan taqdirda, yil uchun individual o‘quv rejasi ishlab chiqiladi. Ushbu davr oxirida xodim yana yakuniy attestatsiyadan o‘tadi, bu uning tayyorgarlik darajasini tizimli ravishda baholash va ishlab chiqarish jarayonlarining xavfsizligini oshirish imkonini beradi.

O‘tkazilgan instruktajlar bo‘yicha barcha ma‘lumotlar Xavfsizlik texnikasi bo‘yicha jurnalda qayd etiladi hamda mehnatni muhofaza qilish standartlariga rioya etilishi va nazorat qilinishi ta‘minlanadi.

## ISH JOYIDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA XAVFSIZLIK BO‘YICHA KASBIY TAYYORGARLIK

| Ko‘rsatkichlar  | 2021 | 2022 | 2023      |
|---|------|------|-----------|
| Bir xodim (o‘z xodimlari) uchun mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik bo‘yicha o‘qitish soatlarining o‘rtacha soni | 36   | 72   | <b>72</b> |
| Ish joyida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitilgan xodimlar soni (o‘z xodimlari)                               | 171  | 68   | <b>27</b> |

**2023-yilda Kompaniya tomonidan 27 nafar xodim o‘qitildi, bu o‘tgan yilgi ko‘rsatkichlardan 60 foizga kam. Bunda, bitta xodim uchun o‘rtacha o‘quv soatlari soni o‘zgarishsiz qoldi — 72 soat.**

## 5.

# IJTIMOÏY MA'SULIYAT VA JAMIYAT OLDIDAGI MAJBURIYAT

- 64 — Boshqaruvga yondashuv
- 66 — Bandlik
- 70 — Kadrlarni rivojlantirish va o'qitish
- 72 — Xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va hayot sifatini yaxshilash bo'yicha loyihalar
- 78 — Axborot xavfsizligi
- 81 — Faoliyat yuritilayotgan hududlarda hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan loyihalar



# Boshqaruvga yondashuv

Personalni rivojlantirish bo'yicha tarkibiy bo'linma Kompaniyaning inson resurslaridan foydalanishni optimallashtirish va uzluksiz rivojlantirishga qaratilgan kompleks kadrlar siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda strategik muhim rol o'ynaydi, bu esa uzoq muddatli biznes-maqсадlarga erishish va Kompaniyaning raqobatdosh pozitsiyalarini mustahkamlashga yordam beradi.

## Mehnatga haq to'lash fondini boshqarish

Mehnatga haq to'lash fondini samarali boshqarish Kompaniyaga adolatli ish haqi stavkalarini saqlab qolish imkonini beradigan puxta rejalashtirish va budjetlashtirishdan boshlanadi. Bunday yondashuv budjet mablag'laridan oqilona foydalanish, zaxiralarni shakllantirish va xodimlarni rag'batlantirish, ularning kasbiy o'sishi va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi. Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish departamenti xodimlarning ishini va Kompaniyaning moliyaviy oqimlarini sinchkovlik bilan tahlil qiladi va baholaydi. Bu har bir xodim o'zining muhimligini his etishini, mehnati xolisona baholanishiga ishonch hosil qilishini va erishgan yutuqlari uchun munosib ravishda mukofotlanishini ta'minlaydi. Ushbu kompleks yondashuv korporativ madaniyatni mustahkamlab va Kompaniyaning yanada rivojlanishini rag'batlantirib, xodimlarning mamnunligi va loyalligini oshirishga yordam beradi.

## Kadrlar zaxirasini shakllantirish

Kadrlar zaxirasini shakllantirish Kompaniyada asosiy lavozimlarni egallashga qodir xodimlarni tayyorlashga qaratilgan, personalni strategik boshqarishning muhim jarayonidir. Bu biznes-jarayonlarning uzluksizligini va kadrlar almashinuvi sharoitida Kompaniya boshqaruvidagi barqarorlikni ta'minlaydi. Kadrlar zaxirasi asosiy xodimlarning ketishi bilan bog'liq risklarni minimallashtirishga yordam beradi va bo'sh ish o'rinlarini malakali mutaxassislar bilan tezkor to'ldirishga imkon beradi, bu esa Kompaniyaning bozordagi mavqeyini mustahkamlaydi va uning uzoq muddatli rivojlanishiga hissa qo'shadi.

"O'zbektelekom" AK va uning xodimlari o'rtasida tuzilgan Yaqona jamoa shartnomasi Kompaniyaning ijtimoiy siyosatining asosini tashkil etadi. Ushbu shartnoma korporativ madaniyat asoslarini belgilaydi va xodimlarga imtiyozlar va kompensatsiyalar berish tartibini tartibga soladi. U Kompaniyada ishlaydigan barcha toifadagi xodimlarni qamrab oladi va Kadrlar va Yoshlar siyosati, ijtimoiy yordam, ijtimoiy-madaniy xilma-xillik va inklyuzivlik kabi kadrlar masalalari bilan bog'liq aspektlarni hisobga oladi.

## Kadrlar siyosati va rejalashtirish

"O'zbektelekom" AKning kadrlar siyosati Kompaniyani uning strategik maqsad va vazifalariga muvofiq bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga qaratilgan. U ijtimoiy mas'uliyat, shaffoflik, mijozlarga e'tibor va individual javobgarlik tamoyillarini o'z ichiga oladi. Kompaniyada kadrlarni tanlash, o'qitish va motivatsiyalash, ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish va malaka oshirish kurslarini o'tkazish orqali ularning kasbiy o'sishi va karyerasi rivojlanishini ta'minlash tizimi faol rivojlanmoqda. Xodimlarning faoliyati samaradorligi obyektiv mezonlar asosida baholanadi, bu esa xodimlarni rotatsiya qilish va mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha o'z vaqtida qaror qabul qilish imkonini beradi. Xodimlar tarkibini doimiy yangilab borish, barqarorlikni saqlash va xodimlar o'rtasida innovatsion fikrlashni rivojlantirish Kadrlar siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

## Xodimlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash

"O'zbektelekom" AKda xodimlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash inson resurslarini boshqarish strategiyasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Samarali motivatsiya tizimi nafaqat mehnat unumdorligini oshiradi, balki korporativ madaniyatni mustahkamlaydi, xodimlarning yuqori darajadagi faolligini ta'minlaydi va kadrlar qo'nimsizligini kamaytiradi. Ushbu tizim doirasida uzluksiz kasbiy o'sish va shaxsiy rivojlanish uchun shart-sharoitlar, jumladan, moddiy va nomoddiy rag'batlantirishning turli shakllari, imtiyozlar va kompensatsiyalar yaratilmoqda. Kasaba uyushmasi qo'mitasi xodimlarning huquqlarini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, adolatli va barkamol mehnat muhitini yaratishga ko'maklashuvchi organ sifatida samarali faoliyat yuritib, bu jarayonda muhim o'rin tutadi.

## Rivojlantirish va o'qitish

"O'zbektelekom" AK o'z xodimlarini o'qitish va malakasini oshirishga faol sarmoya kiritib, buni Kompaniyaning strategik maqsadlariga erishishning asosiy omili sifatida e'tirof etadi. Ta'lim va rivojlanish siyosati tashkilot ichida ham, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan dasturlar orqali ham xodimlarning kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan. Bunday yondashuv xodimlarga nafaqat o'z malakalarini oshirish, balki bozor muhitidagi o'zgarishlarga tezkor moslashish imkonini beradi va shu orqali Kompaniyaning raqobatbardoshligini ta'minlaydi va jamoada yuqori darajadagi professionallikni saqlab qoladi.

## Kompaniya tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar

2023-yilda "O'zbektelekom" AK tomonidan xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish va korporativ madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan bir qator muhim tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu tadbirlar doirasida Kompaniyaning barcha tarkibiy bo'linmalari va har bir xodimini qamrab olgan sport, ma'rifiy va madaniy dasturlar tashkil etildi. Xotin-qizlar va yosh mutaxassislar uchun ixtisoslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi va bu ularning kasbiy o'sishiga va ish jarayonlariga integratsiyalashuviga yordam berdi.

## Ijtimoiy yordam va mehnat huquqlariga rioya qilish

Kompaniyada xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va mehnat huquqlariga rioya qilish borasida ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Kompaniyaning Kadrlar bo'limi mehnat munosabatlari sohasidagi milliy va ichki me'yoriy-huquqiy hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlab, barqarorlik ta'minlanishiga va mehnat qonunchiligiga rioya qilinishiga yordam beradi. Kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan hamkorlikda xodimlarga mehnat huquqlari masalalari bo'yicha malakali yuridik yordam ko'rsatilmoqda, shuningdek, mehnat nizolari va ziddiyatli vaziyatlarni hal etishda ko'maklashilmoqda. Kompaniyada xodimlar va ish beruvchilar o'rtasidagi konstruktiv munosabatlarni saqlash, yuzaga kelayotgan muammolarning adolatli va shaffof hal etilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

## Ijtimoiy tadbirlar

Kompaniyada xodimlarning hayoti sifati va farovonligini oshirishga qaratilgan qator ijtimoiy tashabbuslar amalga oshirilmoqda, jumladan, tibbiy xizmatlar ko'rsatish, davolanishini moddiy qo'llab-quvvatlash, o'qish uchun to'lovlarni amalga oshirish va ko'p bolali oilalarga yordam ko'rsatish. Ushbu chora-tadbirlar xodimlar va ularning oila a'zolari uchun qulay sharoitlar yaratishga yordam beradi va Kompaniyaning yuqori ijtimoiy mas'uliyatini aks ettiradi. Bundan tashqari, Kasaba uyushmasi qo'mitasi turli xil ko'ngilochar tadbirlarni, jamoani shakllantirish dasturlarini va boshqa ijtimoiy tadbirlarni faol ravishda tashkil etadi va bu jamoaviy ruhni mustahkamlash, hamfikirlikni yaxshilash va ijobiy ish muhitini yaratishga yordam beradi. Ushbu yondashuv xodimlarning motivatsiyasini oshirishga hamda samarali va uyg'un ish muhiti yaratilishini ta'minlaydi.

# Bandlik

2023-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, "O'zbektelekom" AK xodimlari soni 17 458 nafarni tashkil etdi. Hisobot davrida xodimlar soni 2022-yilga nisbatan 1,6 foizga qisqarganligi kuzatildi.

2023-YIL 31-DEKABR HOLATIGA KO'RA,  
"O'ZBEKTELEKOM" AK XODIMLARI SONI

**17 458**  
nafarni tashkil etdi


**25,4%**

2023-YILDA KOMPANIYANING ISHCHI  
KUCHIDAGI AYOLLAR ULUSHI


2023-yilda Kompaniya jamoasidagi ayollar ulushi o'rtacha 25,4 foizni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich 2021-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda mehnat resurslarini gender vakilligi kesimida taqsimlashda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagan holda barqaror darajada saqlanib qolmoqda.

Kompaniya mamlakatimizning 14 ta asosiy hududida telekommunikatsiya sohasida faoliyat yuritadi. Xodimlarning eng ko'p soni Toshkent shahrida mujassamlashgan, bu yerda 2023-yil yakuniga ko'ra xodimlar soni 7 873 kishini tashkil etdi va bu boshqa hududlardagi xodimlar sonidan sezilarli darajada ko'proq.

2021–2023-YILLAR YAKUNIGA  
XODIMLAR SONI, KISHI




2021–2023-YILLARDA O'RTACHA XODIMLAR  
SONINING O'ZGARISHI, KISHI




JINSI BO'YICHA XODIMLAR SONI,  
KISHI

Erkaklar Ayollar



FILIALLAR VA HUDUDLAR BO'YICHA XODIMLAR SONI, KISHI



2023-YILDA ISHCHILARNING

100%

JINSIDAN QAT'I NAZAR, TO'LIQ BAND BO'LISH SHARTI BILAN, SHUNINGDEK, MUDDATSIZ ISHLASH ASOSIDA ISH BILAN TA'MINLANDI

5%

2023-YILDA KADRLAR ALMASHINUVI DARAJASI

## 2021–2023-YILLAR UCHUN BANDLIK TURLARI BO'YICHA XODIMLAR NISBATI, %

| Bandlik turi | 2021   | 2022   | 2023   |
|--------------|--------|--------|--------|
| To'liq       | 17 307 | 17 747 | 17 458 |
| Qisman       | 0      | 0      | 0      |

## 2021–2023 YILLAR UCHUN SHARTNOMALAR TURLARI BO'YICHA XODIMLAR NISBATI, %

| Shartnoma turi | 2021   | 2022   | 2023   |
|----------------|--------|--------|--------|
| Muddatsiz      | 17 307 | 17 747 | 17 458 |
| Muddatli       | 0      | 0      | 0      |


## Kadrlarni tanlash

"O'zbektelekom" AKda personalni tanlash Kompaniyaning kadrlar siyosati va tartibga solinadigan tanlov tartibi-qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Kompaniya korporativ qadriyatlarini tushunadigan va kerakli professional va shaxsiy fazilatlariga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb qilishga intiladi. Kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish jarayoni shaffoflik, xolislik va har qanday sabablarga ko'ra kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik tamoyillariga asoslanadi.

## Nomzodlarni baholashning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

- yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, bilim va ko'nikmalar;
- zarur ko'nikmalar va amaliy ish tajribasiga ega bo'lish;
- ta'lim muassasalari yoki oldingi ish joylaridan ijobiy tavsiyalar mavjudligi;
- tashabbuskorlik va natijalarga erishishga yo'naltirilganlik;
- biznes-jarayonlarni yaxshilashni taklif qilish qobiliyati;
- yuqori darajadagi mas'uliyat va kasbiy rivojlanish istagi.

## XODIMLARNI TANLASH JARAYONI BIR NECHA BOSQICHLARNI O'Z ICHIGA OLADI:



## KADRLAR QO'NIMSIZLIGI, %

| Ko'rsatkich   | 2021   | 2022   | 2023   |
|---|--------|--------|--------|
| Personalning umumiy qo'nimsizligi                                   | 3%     | 9%     | 5%     |
| <b>Gender mansublikni hisobga olgan holda kadrlar qo'nimsizligi</b> |        |        |        |
| Erkaklar  | 12 770 | 13 152 | 13 024 |
| Ayollar   | 4 537  | 4 595  | 4 434  |
| <b>Yosh bo'yicha kadrlar qo'nimsizligi:</b>                         |        |        |        |
| 30 yoshgacha  | 5 141  | 5 077  | 4 637  |
| 30–50   | 9 382  | 9 671  | 9 867  |
| 50 yoshdan kattalar   | 2 784  | 2 999  | 2 954  |

"O'zbektelekom" AKda kadrlar qo'nimsizligining qisqarishi bo'yicha barqaror ijobiy tendensiya kuzatilmoqda. Bu kadrlar tarkibidagi barqarorlik oshganidan, qulay mehnat muhiti shakllanganidan va xodimlarning qoniqishi darajasi oshganidan dalolat beradi. Bu omillar korporativ madaniyatni mustahkamlash va xodimlarning ishga jalb qilinganligi darajasini oshirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat qonunchiligiga muvofiq, Kompaniya tashkiliy yoki texnologik omillar ta'sirida rejalashtirilgan o'zgarishlar, shuningdek, ularni joriy etish sabablari to'g'risida xodimlarni kamida ikki oy oldin xabardor qilishi shart.

Hisobot davrida kadrlar qo'nimsizligi darajasi 5 foizni tashkil etdi, bunda, xodimlarning umumiy soni 2022-yilga nisbatan kamaygan.

# Kadrlarni rivojlantirish va o'qitish

2023-YILDA

## 2 658 kishi

NAFAR XODIM MALAKA OSHIRISH KURSLARIDAN O'TDI

"O'zbektelekom" AK xodimlarining malakasini oshirish va o'qitishga alohida e'tibor qaratadi va buni o'z muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri deb hisoblaydi. Kompaniya ishining samaradorligi va barqarorligi bilimlari va ko'nikmalari tashkilotning ishlab chiqarish va tijorat maqsadlariga mos keladigan, yuqori malakali mutaxassislarining mavjudligiga bevosita bog'liq.

"O'zbektelekom" AK xodimlarining kasbiy o'sishini ta'minlash uchun har yili Kompaniya oldiga qo'yilgan dolzarb talab va vazifalarni bajarishga

## 13 978 nafar

XODIM BEVOSITA KOMPANIYADA TASHKIL ETILGAN O'QUV KURSLARI, SEMINARLAR VA TEXNIK MASHG'ULOTLARDA QATNASHDI

qaratilgan, keng ko'lamlı malaka oshirish kurslarini o'z ichiga olgan o'quv rejasi ishlab chiqiladi. Shuningdek, malaka oshirish kurslari tashkil etilgan bo'lib, ular xodimlarga yangi kasblarni o'zlashtirish va ichki rotatsiya doirasida boshqa lavozimlarni egallash imkonini beradi. 2023-yilda 2658 nafar xodim malaka oshirish kurslaridan o'tdi, shundan 33 nafari maqsadli tayyorlash bo'yicha respublika oliy o'quv yurtlarida, 7 nafari xorijiy oliy o'quv yurtlarida, 2618 nafari o'quv markazlarida malaka oshirish kurslarida tahsil oldi. Shuningdek, 13978 nafar xodim bevosita Kompaniyada tashkil etilgan o'quv kurslari, seminarlar va texnik mashg'ulotlarda qatnashdi.

### 2021–2023-YILLARDA XODIMLARNING UMUMIY SONIDAN MALAKA OSHIRISHDAN O'TGAN XODIMLAR ULUSHI

| Personal                                     | 2021          | 2022          | 2023          |
|--|---------------|---------------|---------------|
| Ishchilar soni, kishi                        | 17 307        | 17 747        | 17 458        |
| Malaka oshirishdan o'tgan xodimlar ulushi, % | 96            | 88            | 85            |
| <b>Jami o'qitilganlar soni</b>               | <b>14 765</b> | <b>15 554</b> | <b>16 636</b> |


Mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. 2003-yildan buyon Kompaniya Sankt-Peterburg davlat telekommunikatsiya universiteti bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda, unda 2023/2024-o'quv yilida Kompaniyaning 5 nafar talabasi tahsil olmoqda. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari va texnikumlar talabalari uchun AKT yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqarish va bitiruv amaliyoti muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. 2023-yilda Kompaniyada 63 nafar texnikum, 71 nafar

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va 49 nafar boshqa oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari ish bilan ta'minlandi.

Bundan tashqari, Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 610 nafar o'rta ma'lumotli xodim, Toshkent shahridagi Puchon universitetida esa 236 nafar xodim sirtqi bo'limda tahsil olmoqda. Ushbu chora-tadbirlar Kompaniyani telekommunikatsiya sohasidagi zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashga qaratilgan.

### O'qitishga investitsiyalar

#### 2021–2023 YILLARDA PERSONALNI O'QITISHGA INVESTITSİYALAR, MLN SO'M



### 2024-yilga va o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan rejalar

- Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimini ishlab chiqish, uning doirasida quyidagi normativ hujjatlar ishlab chiqiladi:
  - Ijtimoiy moliyalashtirish sohasidagi siyosat;
  - Inson huquqlari bo'yicha siyosat.
- Ta'lim muassasalari va bandlik xizmatlari bilan bevosita aloqalarni o'rnatish.
- Kompaniyaning nomenklatura lavozimlarini egallab turgan xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish, ularni attestatsiyadan o'tkazish tartibi bilan tanishtirish, natijalarni tahlil qilishda ishtirok etish va Attestatsiya komissiyasi qarorlarini amalga oshirish.
- Xodimlarni ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlashda belgilangan me'yorlarga rioya etilishini nazorat qilish, ishdan bo'shatilgan xodimlarni qayta ishga joylashtirishni tashkil etish va ularga qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar va kompensatsiyalar berish.
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun stajirovka va bitiruv oldi amaliyotini tashkil etish.
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining sirtqi va kechki bo'limlariga abituriyentlar bilan suhbat o'tkazish.
- Maqsadli dasturlar bo'yicha o'qiyotgan talabalar bilan bog'liq masalalar bo'yicha Prof. M.A.Bonch-Bruyevich nomidagi Sankt-Peterburg davlat telekommunikatsiyalar universiteti bilan hamkorlik.

# Xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va hayot sifatini yaxshilash bo'yicha loyihalar

"O'zbektelekom" AK ijtimoiy mas'uliyat, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, xodimlar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratmoqda. Kompaniya o'z faoliyati doirasida xodimlarning kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, sport va madaniy tashabbuslarni o'tkazish, shuningdek, xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli dasturlarni amalga oshirib boradi. Ekologik loyihalar, yosh xodimlarni ijtimoiy ahamiyatga molik tashabbuslarga jalb etish, shuningdek, teng huquqlilik, kasbiy o'sish va xodimlar farovonligi tamoyillariga asoslangan korporativ madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kasaba uyushmasi qo'mitasi hamda Kompaniya va uning xodimlari o'rtasida

2023-2025-yillar uchun tuzilgan Yagona jamoa shartnomasi Kompaniyaning ijtimoiy siyosatining negizida yotgan asosiy mexanizmlari hisoblanadi.

Kasaba uyushmasi qo'mitasining me'yoriy-huquqiy faoliyati ko'p bosqichli tizimga asosan quriladi va uchta asosiy me'yoriy hujjatga asoslanadi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi va O'zbekiston Ish beruvchilar konfederatsiyasi o'rtasidagi Ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha Bosh jamoa kelishuvi, shuningdek, O'zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiyalar

xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi o'rtasidagi tarmoq kelishuvi. Ularga qo'shimcha sifatida, "O'zbektelekom" AK Yagona jamoa shartnomasi amal qiladi.

Ushbu normativ hujjatlar ijtimoiy siyosatning asosiy jihatlarini, jumladan, xodimlarni qo'llab-quvvatlash, inson resurslarini boshqarish, xilma-xillik va inklyuzivlik tamoyillarini qamrab oladi. Yagona jamoa shartnomasi shtatdagi xodimlarning 100 foiziga nisbatan qo'llaniladi, bu Kompaniyaning qulay mehnat sharoitlarini yaratish va har bir xodimga g'amxo'rlik qilish majburiyatini tasdiqlaydi.

**Yagona jamoa shartnomasiga muvofiq, xodimlarga bir qator ustamalar va qo'shimcha to'lovlar taqdim etiladi, ularning asosiylari:**

- dam olish va bayram kunlarida ishlaganlik uchun ustamalar;
- tunda ishlaganlik uchun ustamalar;
- ish vaqtidan tashqari ishlaganlik uchun ustamalar;
- noqulay sharoitlarda ishlaydigan xodimlar uchun ish haqining yuqori koeffitsiyentlari;
- kasbiy bayramlar munosabati bilan mukofotlar;
- yilning sovuq davrida isitish xarajatlarining qisman qoplanishi;
- transportdan foydalanish xarajatlari uchun kompensatsiya.

## 126 104,5 million so'm

2023-YILDA KOMPANIYA XODIMLARINI IJTIMOY QO'LLAB-QUVVATLASH XARAJATLARI

Qo'shimcha to'lovlar va ustamalardan tashqari, Kompaniya keng turdagi imtiyozlarni taqdim etadi. Xodimlar va ularning oila a'zolari uchun yozgi bolalar oromgohlari tashkil etilgan bo'lib, bosh ofis va filiallarda oziq-ovqat uchun chegirmali 12 ta maxsus oshxona ochilgan. Bundan tashqari, xodimlar sanatoriy-profilaktoriyga yo'llanma olishlari mumkin. Ijtimoiy siyosat doirasida turli xil hayotiy holatlar, jumladan, turmush qurish, yaqin qarindoshini yo'qotish, sog'lig'iga ko'ra erta nafaqaga chiqish, shuningdek, tabiiy ofatlar yoki yong'indan jabrlanganlarga moddiy yordam ko'rsatish nazarda tutilgan. Hisobot davrida Kompaniya xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari 126 104,5 million so'mni tashkil etdi, shundan asosiy yo'nalishlar quyidagilar:

### MEHNAT SHAROITLARI BILAN BOG'LIQ XARAJATLAR:

## 13 146,6 mln so'm

Noqulay mehnat sharoitlari uchun qo'shimcha to'lov

## 927,2 ming so'm

Tibbiy ko'rik xarajatlari

## 396,3 ming so'm

MX va XT tadbirlari bo'yicha xarajatlari

### MOLIYAVIY YORDAM:

## 1 724,7 mln so'm

Xodimning vafoti munosabati bilan oila a'zolariga, shuningdek, yaqin qarindoshidan ayrilganligi munosabati bilan xodimlarga beriladigan moddiy yordam

## 160,9 mln so'm

12 yoshgacha bo'lgan ikki va undan ortiq bolasi yoki nogironligi bo'lgan bolasi bo'lgan ayollarga qo'shimcha ta'til davri uchun to'lov

## 222,9 mln so'm

Yubiley sanasi munosabati bilan mukofot puli

## 1 705,3 mln so'm

Homiylik yordami

## 4 542,1 mln so'm

Nafaqaga chiqishi munosabati bilan moddiy yordam

### TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BILAN BOG'LIQ XARAJATLAR:

## 350,2 mln so'm

Xodimlar uchun chiptalar va sayohat yo'llanmalarini xarid qilish xarajatlari

## 23,2 mln so'm

Sport tadbirlarini tashkil etish uchun

Kompaniyaning ijtimoiy siyosatining muhim jihati — bu xodimlarni uy-joy bilan ta'minlash dasturi. 2020-yildan buyon Kompaniyaning Kasaba uyushmasi qo'mitasi tashabbusi bilan eski ATS (ATS) hududida uy-joyga muhtoj xodimlar, yosh va ko'p bolali oilalar va boshqalar uchun ko'p qavatli turar-joy binolari qurildi.

Kompaniyaning Kasaba uyushmasi qo'mitasi berilgan vakolatlardan kelib chiqib, uy-joyga muhtoj xodimlarning arizalarini qabul qiladi va ularni ijtimoiy ehtiyoj mezonlaridan kelib chiqqan holda saralab, ustunlikni eng muhtojlarga beradi. Uy-joy narxining 30 foizi miqdorida boshlang'ich to'lov bilan

imtiyozli shartlarda beriladi, qolgan summa 3 yil davomida har oy qo'shimcha foizsiz to'lanadi. Ushbu tashabbus doirasida 5 ta turar-joy binosi qurilib, ularda Kompaniya xodimlariga barcha zamonaviy qulayliklarga ega 550 xonadon taqdim etildi. Kompaniya tomonidan Yakkasaroy, Shayxontohur va Yunusobod tumanlarida bir xonalidan tortib to'rt xonaligacha turli xonadonlar barpo etildi.

2023-yilda Kompaniya tomonidan uy-joyga muhtoj xodimlar uchun yana 8 ta xonadon ajratildi. Ushbu keng ko'lamlı ijtimoiy loyiha bugungi kunga qadar amalga oshirilmoqda. Kompaniya Sergeli tumanida yangi uylar qurishni rejalashtirmoqda.

## Yoshlar siyosati

**4 687** odam

**2023-YILDA KOMPANIYADA ISHLAYDIGAN  
30 YOSHGACHA BO'LGANLAR**

Kompaniya kadrlar tuzilmasida yosh mutaxassislar sonini ko'paytirishga harakat qilmoqda. Hisobot davrida Kompaniyada 4 687 nafar 30 yoshgacha bo'lgan xodimlar ish bilan ta'minlandi, bu umumiy xodimlar sonining 26.9 foizini tashkil etadi.

Kompaniya yosh xodimlarni rivojlantirishga faol sarmoya kiritib boradi, ularning kasbiy va shaxsiy bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan seminarlar, treninglar va davra suhbatlarini tashkil etadi. Kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan hamkorlikda xodimlar o'rtasida korporativ madaniyatni mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga qaratilgan sport tadbirlari muntazam o'tkazib borilmoqda.

Kompaniyaning yoshlarga oid siyosati nafaqat bosh ofisda, balki mamlakatimizning barcha tarmoqlarida ham amalga oshirilib, yoshlarning kasbiy o'sishi va jalb etilishi uchun teng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. **Ushbu faoliyat doirasida hisobot yilida quyidagi tashabbuslar tashkil etildi:**

- "Bilimli yoshlar — Yangi O'zbekiston bunyodkori" davra suhbatı;
- 170 dan ortiq yosh xodimlar ishtirokida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlangan "Yangi hayot, yangi O'zbekiston yo'lida" davra suhbatı;
- 40 nafar xodim ishtirokida "Siz doimo hurmatdasiz — hurmatli ustozlar" davra suhbatı;
- Guliston davlat universiteti Tilshunoslik kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori Ixtiyor Ertmatov ishtirokidagi "Ona tilim — mening qalbim" mavzusi-da davra suhbatı. Tadbırda 30 nafar yosh xodimlar ishtirok etdi;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga bag'ishlangan "Kompaniyada korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish: muammolar va yechimlar" seminari;
- 30 kunlik yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha aksiya, unda hisobot yilining iyun-dekabr oylarigacha Kompaniyaning barcha filiallaridan 160 nafardan ortiq iqtidorli yosh xodimlar ishtirok etdi;

- Raqamli texnologiyalar sohasidagi startaplar uchun "UZTELECOM Pitch Day" tanlovi. Tanlov yakunlari bo'yicha saralangan startap va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi;
- "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" loyihasi doirasida Samarqand va Buxoro shaharlariga sayohat. Unda 300 dan ortiq yosh mutaxassislar ishtirok etdi;
- Xodimlarning farzandlari uchun ekskursiya, uning davomida 50 dan ortiq bolalar "UZTELECOM" yangi binosining 1-qavatidagi kovorking markaziga tashrif buyurdilar, shuningdek, Hazrati Imom majmuasi, Politexnika muzeyi, Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi va Aloqa tarixi muzeyiga tashrif buyurdilar;
- Kibersport turnirlari ("Cyber sport CS 1.6", "CS: GO"), ularda 30 dan ortiq yosh xodimlar yuqori darajadagi tayyorgarlikni namoyish etib, sovrinlar bilan taqdirlandilar;
- Analitik fikrlash va jamoaviylikni rivojlantirishga yordam beruvchi "Zakovat" intellektual o'yinlari;
- Ekologik tashabbuslar, jumladan, "Yashil makon" milliy loyihasi doirasidagi obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlari.

Kompaniya yosh mutaxassislar va rahbariyat o'rtasida ochiq muloqotni qo'llab-quvvatlaydi, dolzarb muammolarni muhokama qilish va birgalikdagi yechimlarni ishlab chiqish uchun sharoit yaratadi. Hisobot yilining avgust oyida Kompaniyaning 14 filiallarida, Samarqand, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Qashqadaryo, Toshkent, Farg'ona va Xorazm filiallarida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida Kompaniyaning yosh xodimlari, filiallar direktorlari, boshqaruv raisining Yoshlar siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi ishtirokida uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Uchrashuvlar davomida yosh mutaxassislarining tashabbuslari taqdimoti bo'lib o'tdi va malaka oshirish hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi. **Quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratildi:**

- filiallar bazalarida amaliy mashg'ulotlar va master-klasslar tashkil etish;
- tanlovlar va professional musobaqalar o'tkazish;
- yosh xodimlarning startap tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;
- yosh oilalar va alohida ehtiyojli yoshlarga yordam ko'rsatish;
- yosh mutaxassislar ishtirokida volontyorlik harakatini rivojlantirish.

Kompaniya Yoshlarga oid siyosat doirasida universitetlar va boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirib, malakali mutaxassislar tayyorlash uchun shart-sharoit yaratmoqda. Bu hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri — talabalarning hamkor universitetlarda ta'lim olishini moliyalashtirish, shuningdek, xodimlarga oliy ma'lumot olish imkoniyatini berish. Ushbu yondashuv kadrlar zaxirasini shakllantirish, xodimlarning o'zaro bilim va ko'nikmalari bilan bo'lishish, talabalar hamda xodimlarda kasbiy mahoratni oshirishga yordam beradi.

Kompaniyaning universitetlar bilan muvaffaqiyatli hamkorligiga misol qilib, professor M.A.Bonch-Bruyevich nomidagi Sankt-Peterburg davlat aloqa universiteti bilan 2003-yildan buyon davom etib kelayotgan hamkorlikni keltirish mumkin. Ushbu davrda Kompaniya tomonidan yuborilgan mutaxassislar universitetda tahsil oldi, ulardan 32 nafari Kompaniyada, uning filiallari va korxonalarida, 29 nafari — boshqa tashkilotlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Hisobot davrida mazkur universitetda 5 nafar talaba tahsil oldi, bunda, moliyalashtirish summasi 102,4 million so'mni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi bilan hamkorlik doirasida 2023-yilda Kompaniyaning 32 nafar xodimi magistraturada tahsil oldi, buning uchun 423,1 million so'm mablag' ajratildi.

Shuningdek, Kompaniya o'z xodimlarining malakasini oshirishga faol amaliy yordam ko'rsatib boradi, uning tavsiyasiga ko'ra, 846 nafar o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis oliy o'quv yurtlarida sirtqi bo'limda o'qishni davom ettirdi, jshu umladan:

- 610 nafar xodim — Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning hududiy filiallarida;
- 236 nafar xodim — Toshkent shahridagi Puchon universitetida.

Bundan tashqari, 2023-yilda Kompaniya va uning filiallarida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning hududiy filiallarining, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining 700 nafardan ortiq talabalari uchun, shuningdek, Toshkent axborot texnologiyalari kollejining 280 nafar o'quvchilari uchun ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlari tashkil etildi.

Ta'lim tashabbuslaridan tashqari, Kompaniya yosh xodimlarni qo'llab-quvvatlaydi. Kasaba uyushmasi qo'mitasi tashabbusi bilan yoshlar vakillariga jami 181 million so'm miqdorida moddiy yordam ko'rsatildi. Ular orasida:

- 30-iyun Yoshlar kuniga bag'ishlangan tadbirlar, jumladan, konsertlar, festivallar va kibersport musobaqalarini o'tkazish uchun 104,5 mln so'm ajratildi.
- 76,7 million so'm — 30 yoshgacha bo'lgan yangi turmush qurganlar xodimlarga moddiy yordam sifatida ajratildi.

Kompaniya yosh mutaxassislar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga intiladi, ularning

uzluksiz bilim olishi va malakasini oshirishga intilishini rag'batlantirib boradi. Ushbu tashabbus doirasida oliy ta'lim muassasalarida o'qishni muvaffaqiyatli tamomlagan xodimlarga mukofot puli berilishi ko'zda tutilgan. 2023-yilda ushbu turdagi bitta mukofot puli miqdori 689 920 so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Yagona jamoa shartnomasiga asosan 2023-yilda 1 223 nafar xodimga 9 907.1 mln so'm miqdorida malaka oshirish uchun ta'til to'lovlari amalga oshirildi.

Yoshlarga oid siyosatga kompleks yondashish Kompaniyaga nafaqat iqtidorli mutaxassislarni jalb qilish, balki mamlakatimizda ta'lim va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga ham hissa qo'shish imkonini beradi.

## Xilma-xillik va inklyuzivlik

"O'zbektelekom" AK tenglik va inklyuzivlik tamoyillariga amal qiladi, jinsi, yoshi, irqi va boshqa individual xususiyatlaridan qat'i nazar, xodimlarning kasbiy o'sishi uchun shart-sharoit yaratadi. Kompaniya siyosati mehnatga haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy to'lovlarga adolatli yondashish, hamma uchun

teng imkoniyatlarni ta'minlashga asoslanadi. Xilma-xillikka intilib, Kompaniya boshqaruvning barcha darajalarida inklyuziv ish muhitini saqlab boradi. 2023-yil holatiga ko'ra, Kompaniyada 102 nafar imkoniyatlari cheklangan shaxslar mehnat qiladi va ular uchun qulay mehnat sharoitlari yaratilgan.

### LAVOZIMLAR KESIMIDA PERSONALNING GENDER TUZILMASI, KISHI

| Ko'rsatkichlar                  | 2021          |              | 2022          |              | 2023          |              |
|---------------------------------|---------------|--------------|---------------|--------------|---------------|--------------|
|                                 | Erkaklar      | Ayollar      | Erkaklar      | Ayollar      | Erkaklar      | Ayollar      |
| <b>Bo'ysunuvdagi lavozimlar</b> | <b>12 741</b> | <b>4 537</b> | <b>13 125</b> | <b>4 595</b> | <b>13 000</b> | <b>4 433</b> |
| 30 yoshgacha                    | 3972          | 1169         | 3830          | 1076         | 3727          | 960          |
| 30–50 yosh                      | 6245          | 2 835        | 6842          | 2 829        | 7122          | 2802         |
| 50 yoshdan kattalar             | 2 524         | 533          | 2 453         | 690          | 2151          | 671          |
| <b>Rahbar lavozimlar</b>        | <b>29</b>     | <b>0</b>     | <b>27</b>     | <b>0</b>     | <b>24</b>     | <b>1</b>     |
| 30 yoshgacha                    | 0             | 0            | 0             | 0            | 0             | 0            |
| 30–50 yosh                      | 19            | 0            | 19            | 0            | 17            | 0            |
| 50 yoshdan kattalar             | 10            | 0            | 8             | 0            | 7             | 1            |
| <b>Jami</b>                     | <b>12 770</b> | <b>4 537</b> | <b>13 152</b> | <b>4 595</b> | <b>13 024</b> | <b>4 434</b> |

### IMKONIYATLARI CHEKLANGAN XODIMLAR SONI, KISHI

| Ko'rsatkichlar                  | 2021       |           | 2022      |           | 2023       |           |
|---------------------------------|------------|-----------|-----------|-----------|------------|-----------|
|                                 | kishi      | %         | kishi     | %         | kishi      | %         |
| <b>Bo'ysunuvdagi lavozimlar</b> | <b>106</b> | <b>1%</b> | <b>96</b> | <b>1%</b> | <b>102</b> | <b>1%</b> |
| Rahbar lavozimlar               | 0          | -         | 0         | -         | 0          | -         |
| <b>Jami</b>                     | <b>106</b> |           | <b>96</b> |           | <b>102</b> |           |

## Kompaniya tomonidan 2023-yilda imkoniyatlari cheklangan xodimlarga moddiy yordam ko'rsatilib, nogironlik nafaqasi sifatida 328 million so'm ajratildi.

## Gender tenglik va Xotin-qizlar qo'mitasi

"O'zbektelekom" AK gender tenglikni ta'minlash va Kompaniyada ayollar sonini ko'paytirishga qaratilgan amaliyotlarni joriy etmoqda. Erkak va ayol xodimlar teng huquqlarga ega, ta'lim resurslaridan foydalanish huquqiga ega va teng javobgarlikka ega.

Gender tenglik Kompaniya uchun muhim qadriyat hisoblanadi, chunki gender tengsizlik masalalari har bir ayolning hayoti bilan bog'liq bo'ladi va uning hayoti sifatiga sezilarli ta'sir qiladi. Kompaniyada Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyat yuritadi, chunki umumiy xodimlarning 25 foizini ayollar tashkil etadi. Gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning huquqlarini kengaytirish maqsadida Kompaniyada maxsus komissiya tashkil etilgan. Shuningdek, Kompaniyaning 2022-yil 28-iyundagi 257-son buyrug'i qabul qilingan hamda Ayollar va erkaklarning huquqiy sharoitlarini takomillashtirish bo'yicha kengash nizomi ishlab chiqilgan.

Kompaniyaning "ishonch telefoni" orqali murojaatlar kelib tushganda, Qo'mita xotin-qizlarning mehnat huquqlari, karyerasi o'sishi, shuningdek, duch kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy va oilaviy muammolari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi va maslahat berish orqali ko'maklashadi. Qo'mita, shuningdek, moslashuvchan jadvallar, masofaviy ishlash imkoniyatlari va boshqa chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan oila va ish mas'uliyatini muvozanatlashda xodimlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha siyosatlar yoki nizomlarni ishlab chiqishda va joriy etish ishlarida ishtirok etadi.

Qo'mita tomonidan xotin-qizlarni o'qitishga, jumladan, ikkinchi oliy ma'lumot olishiga, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kadrlar tayyorlash yo'nalishida sentabr oyida Kompaniyada "Kompaniyadagi mas'uliyat, intizom va ayollarni qo'llab-quvvatlash" mavzusida davra suhbat o'tkazildi. Uning maqsadi xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, turli soha va tarmoqlarda salohiyatini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish, zarur yordam ko'rsatishdan iborat edi. Tadbirda Kompaniyaning 60 nafardan ortiq ayol xodimlari faol ishtirok etdi.

Kompaniya ayollar salomatligini saqlash va g'amxo'rlik qilish maqsadida turli tadbirlar o'tkazmoqda. Jumladan, 2023-yil oktabr oyida turkiyalik mutaxassis, "Liv Hospital" klinikasining jarroh-mammologi Mustafo Tukenmez ishtirokida ko'krak bezi saratonining oldini olish bo'yicha seminar bo'lib o'tdi. Seminar ayol xodimlarning ko'krak bezi saratoni riski omillari, uning belgilari va oldini olish usullari haqida xabardorligini oshirishga qaratilgan edi. Tadbirdan ko'zlangan maqsad — xotin-qizlar salomatligi va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, ayollar salomatligini muhofaza qilish borasidagi profilaktika tadbirlari va ma'rifiy tashabbuslarning ahamiyatini ta'kidlash.

Hisobot davrida homiladorlik va tug'ish hamda bola parvarishlash bo'yicha ta'tilga chiqqan xodimlar soni 2022-yilga nisbatan kamayib, 1 022 nafarni tashkil etdi. 2021–2023 yillarda bola parvarishlash ta'tilining o'rtacha davomiyligi o'zgarishsiz qoldi va 365 kunni tashkil etdi.

### BOLA PARVARISHLASH TA'TILINI RASMIYLASHTIRGAN XODIMLAR SONI, KISHI

| Ko'rsatkichlar   | 2021     |         | 2022     |         | 2023     |         |
|--|----------|---------|----------|---------|----------|---------|
|  | Erkaklar | Ayollar | Erkaklar | Ayollar | Erkaklar | Ayollar |
| Xomiladorlik va tug'ish yoki bola parvarishlash bo'yicha ta'til olish huquqiga ega bo'lgan xodimlar soni (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq) | 0        | 1 131   | 0        | 1 101   | 0        | 1 022   |
| Xomiladorlik va tug'ish yoki bola parvarishlash bo'yicha ta'tilni rasmiylashtirgan xodimlar soni   | 0        | 1 131   | 0        | 1 101   | 0        | 1 022   |
| Hisobot yilida bola parvarishlash ta'tilining o'rtacha davomiyligi, kunlar   | 365      | 365     | 365      | 365     | 365      | 365     |

\* Ko'rsatkichda qaytib kelgan va shartnomalari bekor qilingan xodimlar hisobga olinadi (hisobot yilida onalik/otalik ta'tilini uzaytirgan xodimlar bundan mustasno).

# Axborot xavfsizligi

Kompaniya barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilib, axborot jarayonlarini samarali boshqarish va ma'lumotlarni himoya qilishni ta'minlaydi. Axborot xavfsizligini boshqarish bir qator tadbirlar orqali amalga oshiriladi, jumladan:

## Normativ baza orqali:

- Axborot xavfsizligi siyosati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shu jumladan axborot, shaxsiy ma'lumotlar va raqamli texnologiyalarni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonunlarga muvofiqdir.
- Kompaniya axborot xavfsizligining xalqaro standartlariga amal qiladi.
- Davlat nazorat organlari bilan o'zaro hamkorlik normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlaydi.

## Boshqaruvning korporativ tuzilmasi orqali:

- Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun javobgarlik boshqaruvning turli darajalari o'rtasida taqsimlanadi.
- Kompaniyada axborot xavfsizligi bilan bog'liq risklarni monitoring qilish va tahlil qilish mexanizmi mavjud.
- Axborot xavfsizligi chora-tadbirlari samaradorligini baholash uchun ichki audit va tekshiruvlar o'tkaziladi.

## Strategik rejalashtirish va risklarni boshqarish orqali:

- Ehtimoliy tahdidlar va zaifliklar, jumladan, ma'lumotlarning sizib chiqishi va texnologik nosozliklar yuzaga kelishi risklari tahlil qilinadi.
- Axborotni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyi, jumladan, monitoring va javob mexanizmlari amalga oshirilmoqda.
- Xavfsizlik siyosati Kompaniyaning umumiy barqaror rivojlanishi strategiyasiga integratsiya qilingan.

Kompaniya ma'lumotlar va axborot tizimlari himoya qilinishi muhim ahamiyatga ega ekanligini va bu barqaror rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanishini anglaydi. Axborot xavfsizligining asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

## Maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish:

- Ma'lumotlarni himoya qilish va kirishni boshqarish usullari qo'llaniladi.
- Milliy va xalqaro standartlarga muvofiq shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash bo'yicha talablarga rioya qilinadi.
- Kompaniyaning axborot tizimlarida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar doimiy ravishda amalga oshirilmoqda.
- Axborot tizimlariga kirish doimiy ravishda nazorat qilinadi, agar kerak bo'lsa, kirish imkoni zudlik bilan ko'rib chiqiladi va sozlanadi.
- Kompaniyaning mahalliy tarmog'ini ruxsatsiz kirish va hujumlardan himoya qilish uchun maxsus dasturiy ta'minot qo'llaniladi.

## Xodimlarni o'qitish va xabardorlik darajasini oshirish:

- Axborot xavfsizligi masalalari bo'yicha xodimlarni muntazam ravishda o'qitish.
- Korporativ resurslardan xavfsiz foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiyalarni ishlab chiqish.
- Raqamli muhitda tahdidlar va xavfsiz xulq-atvor tamoyillaridan xabardorlik madaniyatini shakllantirish.
- Kompaniya xodimlarining axborot xavfsizligi bo'yicha konferensiyalar va o'quv kurslarida ishtirok etishi.

## Monitoring va hodisalarga javob berish:

- Hodisalarni aniqlash uchun infratuzilma monitoringi amalga oshiriladi.
- Tahdidlarga javob berish va hodisalarni tahlil qilish jarayoni mavjud.
- Zaifliklarni aniqlash uchun testlash jarayoni o'tkaziladi.
- Tahdidlarni tezkor aniqlash uchun avtomatlashtirilgan xavfsizlik vositalaridan foydalanish.
- Samaradorlikni oshirish uchun hodisalarga javob berish tizimini muntazam ravishda sinab ko'ring.

Axborot xavfsizligi Kompaniya uchun strategik ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda, bu mijozlar va hamkorlar ma'lumotlari himoyalanihini, shuningdek, xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlaydi.

2023-yilda "O'zbektelekom" AK tomonidan Kompaniyaning axborot xavfsizligi va kiberbarqarorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish davom ettirildi. Xavfsizlik boshqarmasi o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan Axborot xavfsizligi siyosatiga amal qiladi.

**Kompaniya tomonidan 2023-yilda kiberxavfsizlik dasturi doirasida filiallarda ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot, videokuzatuv va kirishni boshqarish tizimlari (VvaKBT)ni xarid qilish uchun 1 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Xodimlarni o'qitishga ham katta e'tibor qaratildi: treninglar "O'zbektelekom" AK "Telekommunikatsiya va personalni rivojlantirish markazi" filialida hamda onlayn seminarlar formatida o'tkazildi.**

Tarkibiy jihatdan Xavfsizlik boshqarmasi boshqaruv raisining axborot xavfsizligi va rejim bo'yicha o'rinbosariga bo'ysunadi va 5 ta shtat birligi, shuningdek, filiallarda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun mas'ul xodimlarni o'z ichiga oladi. Ishda asosiy e'tibor "IT" infratuzilmasini modernizatsiya qilish, dasturiy-apparat tizimlarini xarid qilish va yangilash orqali risklarning oldini olish va minimallashtirishga qaratildi.

Kompaniya kiberbardoshlilikni oshirish strategiyasini izchil amalga oshirmoqda, ilg'or axborot xavfsizligi texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirmoqda hamda global va sohaviy standartlarga muvofiq xavfsizlik choralarini kuchaytirishni davom ettirishni rejalashtirmoqda.

## Faoliyat yuritilayotgan hududlarda hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan loyihalar

Kompaniya nafaqat bevosita tashkilotda ish bilan band bo'lgan xodimlariga, balki faoliyat yuritayotgan hududlar aholisi haqida ham g'amxo'rlik qilishga intiladi. Kompaniyada nazarda tutilgan barcha ijtimoiy imtiyozlar barcha 16 ta tarkibiy bo'linmani qamrab oladi, ularning joylashgan joyidan qat'i nazar, xodimlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Kompaniya o'zining filiallar tarmog'i orqali hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatib, aholi bandligi va farovonlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Kompaniya xodimlarining 55 foizi O'zbekiston Respublikasi hududlarida mehnat qilib, ularning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shayotgani buning muhim ko'rsatkichidir.

**2023-yilda Kompaniya tomonidan sport tashkilotlari va ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash uchun, tegishli, 10 000 million so'm va 11 517 million so'm miqdorida moddiy yordam ko'rsatildi.**

Kompaniya tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy va innovatsion dasturlar orqali ushbu ijobiy ta'sir kuchayib bormoqda. Bunday loyihalardan biri — yosh mutaxassislariga o'z g'oyalarini taqdim etish va rivojlantirish, ularni kelgusida amalga oshirishda ko'mak olish imkonini beruvchi, umumiy jamg'armasi 217.2 million so'm bo'lgan "Start-UP Pitch Day" loyihasidir.

### 2023-YILDA XAYRIYA VA HOMIYLIK YO'NALISHLARI, MLN SO'M

| Ko'rsatkichlar                                       | 2021      | 2022      | 2023             |
|--|-----------|-----------|------------------|
| Homiylik yordami uchun xarajatlarning umumiy summasi | 30 629,72 | 46 036,67 | <b>30 119,87</b> |
| Kam ta'minlangan oilalarga yordam                    | -         | -         | <b>25,00</b>     |
| Maktablarga yordam                                   | 586,05    | 10 000,00 | <b>10 000,00</b> |
| Institutlarga yordam                                 | 3 000,00  | -         | <b>400,00</b>    |
| Nogironlar va qariyalar uylari va jamiyatiga yordam  | 40        | -         | -                |
| Bayram tadbirlarini tashkil etishda yordam           | 1 153,63  | 2 000,00  | -                |
| Mahalliy hokimiyat organlariga ajratmalar            | 915,65    | 26 253,35 | <b>7 667,50</b>  |
| Sport tashkilotlariga yordam                         | 1 299,40  | 6 976,93  | <b>11 517,38</b> |
| Boshqa tashkilotlarga homiylik yordami               | 485,00    | 806,39    | <b>510,00</b>    |

## 6.

## ILOVALAR

- 83 — 1-ilova. Glossariy va qisqartmalar ro‘yxati
- 84 — 2-ilova. Hisobot haqida
- 85 — 3-ilova. Bog‘lanish uchun ma‘lumot

# 1-ilova. Glossariy va qisqartmalar ro‘yxati

|                      |  |
|----------------------|--|
| <b>ATC</b>           | Avtomatik telefon stantsiyalari  |
| <b>QTEM</b>          | Qayta tiklanadigan energiya manbalari  |
| <b>XEI</b>           | Xalqaro elektraloqa ittifoqi   |
| <b>MX va XT</b>      | Mehnat xavfsizligi va xavfsizlik texnikasi   |
| <b>MChJ</b>          | Mas’uliyati cheklangan jamiyat   |
| <b>OTT-servislar</b> | “Over-the-Top” servislar   |
| <b>IG</b>            | Issiqxonalar gazlari   |
| <b>PCC</b>           | Aloqa sohasidagi mintaqaviy hamdo'stlik  |
| <b>VvaKBT</b>        | Videokuzatuv va kirishni boshqarish tizimi   |
| <b>BMTning BRM</b>   | Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari  |
| <b>CSR</b>           | Corporate Social Responsibility — Korporativ ijtimoiy javobgarlik  |
| <b>ESG</b>           | Environmental, Social, Governance — atrof-muhitni muhofaza qilish, qulay ijtimoiy sharoitlar va sog'lom korporativ boshqaruvni o'z ichiga olgan tamoyillar |
| <b>GRI</b>           | Global Reporting Initiative — Hisobot berish bo'yicha global tashabbus   |
| <b>VoLTE</b>         | Voice over LTE — LTE (4G) tarmoqlarida ovozni uzatish texnologiyasi  |

## 2-ilova. Hisobot haqida

“O‘zbektelekom” AK Hisobot berish bo‘yicha global tashabbus (GRI) standartlari tavsiyalarini inobatga olgan holda tayyorlangan 2023-yil uchun Barqaror rivojlanish haqidagi birinchi hisobotini taqdim etmoqda. Ushbu hisobot Kompaniyaning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, atrof-muhitga ta‘sirini minimallashtirishga va mas‘uliyatli boshqaruvga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirish tarafdori ekanligini namoyish etadi.

Hisobot “O‘zbektelekom” AK faoliyat yuritayotgan hududda barqaror rivojlanishning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari bo‘yicha Kompaniya faoliyatining asosiy natijalarini qamrab olgan. Raqamli foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish borasidagi sa‘y-harakatlarga, shuningdek, korporativ boshqaruvga alohida e‘tibor qaratilgan. Hisobotga Kompaniyaning manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro munosabatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ham kiritilgan.

2024-yilda “O‘zbektelekom” AK O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmoniga muvofiq ESG hisobotlarini tayyorlash amaliyotini takomillashtirishni davom ettirdi. Mazkur Farmon davlat ishtirokidagi korxonalarda faoliyatning ochiqlik darajasini tubdan oshirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu Farmon bilan davlat ulushi 50 % va undan ortiq bo‘lgan yirik kompaniyalarga korporativ ijtimoiy mas‘uliyat (CSR), shuningdek, atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (keyingi o‘rinlarda — ESG) holati to‘g‘risidagi hisobotlarni har yili nashr etish vazifalari yuklatigan.

Mazkur hisobotning tayyorlanishi “O‘zbektelekom” AKning shaffoflik, barqaror rivojlanish va jamiyat oldidagi mas‘uliyatga intilishini aks ettiruvchi muhim qadamdir. Hisobot chegaralari “O‘zbektelekom” AK tarkibidagi filial va korxonalarini qamrab olgan.

## 3-ilova. Bog‘lanish uchun ma‘lumot

|                            |  |                   |
|----------------------------|--|-------------------|
| <b>YURIDIK MANZIL:</b>     | TOSHKENT SH., A. TEMUR KO‘CHASI, 97A               |                   |
| <b>POCHTA MANZILI:</b>     | 100011, TOSHKENT SH., A. NAVOIY KO‘CHASI, 28A      |                   |
| <b>JOYLASHGAN MANZILI:</b> | 100164, TOSHKENT SH., I. MO‘MINOV KO‘CHASI. 4/2-UY |                   |
| <b>TELEFON:</b>            | (998 71) 200-77-97                                 |                   |
| <b>ELEKTRON POCHTA:</b>    | UZTELECOM@EXAT.UZ                                  | INFO@UZTELECOM.UZ |
| <b>INTERNET-RESURS:</b>    | <a href="http://UZTELECOM.UZ">UZTELECOM.UZ</a>     |                   |